



# INVOLTA INNOVATION SCIENTIFIC JOURNAL

## 2023



Google Scholar provides a simple way to broadly search for scholarly literature.



Any status is accepted, from any stage of the research lifecycle



Wikipedia is a free online encyclopedia created by volunteers around the world



Open Journal Systems (OJS) is an open source solution to managing and publishing scholarly journals online.



**JOURNAL OF THE  
COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES**

**INVOLTA IS A SCIENTIFIC JOURNAL ESTABLISHED WITH  
SUPPORT OF THE KHOREZM MAMUN ACADEMY ( BASED ON  
THE AOKA CERTIFICATE NO: 1453 UNDER THE PRESIDENTIAL  
ADMINISTRATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN)**





**INVOLTA**

**INNOVATION ILMU  
JURNAL**

**ИННОВАЦИОННЫЙ  
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ  
INNOVATION SCIENTIFIC  
JOURNAL**

**ISSN: 2181-2632 BARCHA  
SOHALAR BO'YICHA  
VOL 3, ISSUE 6 (1),  
June 2024**

**PART – 1**

**[www.involta.uz](http://www.involta.uz)**

TAHRIRIYAT

<p><b>Editor in chief</b> Mavlonov Khudargan <u>Doctor of Biological Sciences, Professor.</u> <u>Jizzakh State Pedagogical University</u></p> <p><b>Editor-in-Chief (Executive Secretary Deputy)</b> Kholikova Nodira <u>Kholikova Nodira Candidate of Philological</u> <u>Sciences.</u> <u>Associate Professor, Chirchik State Pedagogical</u> <u>University</u></p> <p><b>Preparing for publishing</b> Umaraliyev Khumoyun <u>Chirchik State Pedagogical University</u></p>	<p><b>Bosh muharrir</b> Mavlonov Xudargan <u>Biologiya fanlari doktori, Professor.</u> <u>Jizzax davlat pedagogika universiteti</u></p> <p><b>Bosh muharrir o‘rinbosari (Mas‘ul kotib)</b> Xolikova Nodira <u>Filologiya Fanlari Nomzodi, Dotsent.</u> <u>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</u></p> <p><b>Nashrga tayyorlovchi</b> Umaraliyev Humoyun <u>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</u></p>
<b>TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI</b>	

*Tojiboyev Komiljon O‘zR FAsi Botanika Ilmiy Tekshirish Instituti Direktori, Biologiya FanlariDoktori,Akademik*  
*Abdullayev Ikram Biologiya Fanlari Doktori, Professor. Ma‘mun Akademiyasi Raisi*  
*Mustafakulov Sherzod Iqtisod Fanlari Doktori, Professor Qo‘qon Universiteti Rektori*  
*Prof. Dr. Tanju Seyhan Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi Fen Edebiyat Fakültesi Öğretim Üyesi Prof.Dr.*  
*İbrahim İştan Selçuk Üniversitesi İslami İlimler Fakültesi Öğretim Üyesi*  
*Dr. Necdet Tosun Marmara Üniversitesi, İlahiyat Profesörü*  
*PROF. Dr. Önal Kaya Ankara Üniversitesi Dil, Tarih Ve Coğrafya Fakültesi Emekli Öğretim Üyesi*  
*Almaz Ulviy Binnatova Ozarbayjon Ilmlar Akademiyasi Nizomiy Nomidagi Adabiyot Instituti Professori*  
*Doschanov Tangribergan Iqtisod Fanlari Doktori. Professor, Urganch Davlat universiteti*  
*Sirojiddinov Shuhrat Filologiya Fanlari Doktori, Professor O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti Rektori*  
*Baltayeva Umida Fizika-Matematika Fanlari Doktori, Ma‘mun Akademiyasi Katta Ilmiy*  
*Xodimi*  
*Farmonov Rahmon Jahon Iqtisodiyoti Va Diplomatiya Universiteti Ijtimoiy-GumanitarFanlar KafedراسiProfessori*  
*Sherimbetov Sanjar O‘ZRFA Bioorganik Kimyo Instituti Professori*  
*Jabborov Nurboy Filologiya Fanlari Doktori, Professor Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tiliva*  
*Adabiyoti Universiteti*  
*Mambetullayeva Svetlana Biologiya Fanlari Doktori, Prof. Qoraqalpoq Tabiiy Fanlar Ilmiy-Tadqiqot Instituti*  
*DirektoriO‘rinbosari*  
*Erkinov Aftondil Filologiya Fanlari Doktori, Professor. O‘zR FA Temuriylar Tarixi Davlat Muzeyi (O‘rindosh)*  
*Kattallmiy Xodimi*  
*Saparov Qalandar Biologiya Fanlari Doktori. Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Jo‘raqulov*  
*Uzoq Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbek Tili Va Adabiyoti Universiteti, Filologiya Fanlari Doktori,Professor*  
*Yusupova Dilnavoz Filologiya Fanlari Doktori, Dotsent Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbek Tili va*  
*AdabiyotiUniversiteti*  
*Xasanov Nodirxon O‘zRes FAsi O‘zbek Tili, Adabiyoti va Folklori Instituti, Filologiya FanlariDoktori*  
*Sultonov Marat Kimyo Fanlari Doktori, Dotsent JDPI Kimyo O‘qitish Metodikasi Kafedراسi Mudiri*  
*Asadov Maqsud Filologiya O‘zRes FAsi O‘zbek Tili, Adabiyoti va Folklori Instituti Yetakchi Ilmiy Xodimi*  
*Pardayev Qo‘ldosh Filologiya Fanlari doktori Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti*  
*Univesiteti*  
*Qodirov G‘ayrat Biologiya Fanlari Nomzodi, Dotsent. JDPI Ilmiy Ishlar va Innovatsiyalar Bo‘yicha Prorektori*  
*O‘tanova Sirdaryo O‘zR FAsi O‘zbek Tili, Adabiyoti va Folklor Instituti Katta Ilmiy xodimi*  
*Jurayeva Nilufar Vayitovna Texnika fanlari nomzodi, Geologiya fanlari universiteti*  
*Mo‘yidinov Qodirjon Abdurasulovich Filologiya Fanlari Bo‘yicha Falsafa Doktori (PhD) Chirchiq Davlat Pedagogika*  
*universiteti*  
*Tilakova Mavjuda Ashurovna p.f.f.d. (PhD) Jizzax viloyati Jizzax VPXQTMOHM "Pedagogika va psixologiya, ta'lim*  
*texnologiyalari" kafedra mudiri*

INVOLTA INNOVATSION ILMIY JURNALI TAHRIRIYATINING MANZILI:  
 111707.TOSHKENT VILOYATI, CHIRCHIQ SHAHRI,M.YUSUPOV  
 KO‘CHASI 1-UY

[www.involta.uz](http://www.involta.uz)

## AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURI MUHITIDA ISHLASH

**Elshod Abdusalim o‘g‘li Ulug‘murodov**

TIQXMMI MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

### ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta‘lim talaba va o‘qituvchilarga ta‘lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga qaratilgan. Ta‘limga xos dasturiy ta‘minotlar, masofaviy ta‘limga mos interaktiv dasturlardan foydalanishning samradorligi hamda mustaqil bilim olishda axborot texnologiyalarining muhimligi, yoshlarning dunyoqarashiga mos manbaalarni zamonaviy ko‘rinishdagi, interaktiv va kreativ tarzda axborot texnologiyalarida tayyorlash va uzatishning bugungi kundagi dolzarb masalalari xaqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Autoplay, pedagogika, kreativ, interaktiv, kontent, mustaqil ta‘lim.

### ABSTRACT

The article focuses on the issues of using advanced pedagogical technologies in teaching higher education students and teachers. About the effectiveness of using educational software, interactive programs suitable for distance learning, and the importance of information technology in independent learning, about today's current issues of preparation and transmission of resources in information technology in a modern, interactive and creative way that are suitable for the worldview of young people. will go.

**Keywords:** Autoplay, pedagogy, creative, interactive, content, independent education.

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам использования передовых педагогических технологий в обучении студентов и преподавателей высших учебных заведений. Об эффективности использования образовательного программного обеспечения, интерактивных программ, подходящих для дистанционного обучения, и значении информационных технологий в самостоятельном обучении, об актуальных на сегодняшний день проблемах подготовки и передачи ресурсов в области информационных технологий современным, интерактивным и творческим способом, подходящим для мировоззрение молодежи.


**Ключевые слова:** Автоигра, педагогика, творческое, интерактивное, содержательное, самостоятельное образование.

Dars ishlanmalarini turli dasturiy ta’minotlar, animatsiyalar hamda ta’lim kontentlaridan foydalanib shakllantirish davr talabi bo’lib qolmoqda. Dasturiy ta’minotlar, zamonaviy ta’lim kontentlari, axborot texnologiyalardan foydalanish haqida bilimlarni pedagoglar chuqur va puxta bilishlari muhim hisoblanadi.


Prezident Shavkat Mirziyoev ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib: “Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat ta’lim tizimining kelajagini raqamli texnologiyalarsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb elon qilinishi ham bejiz emas. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda darslarni tashkil etish respublika miqyosida ijobiy deb bo‘lmaydi. O‘quvchi-yoshlarning mustaqil bilim olish faoliyatida axborot texnologiyalari yetarli qo‘llanilmayapti desak bu ham to‘g‘ri bo‘ladi.

Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko‘plab dasturiy ta’minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir. Istalgan fayl yoki fayllar to‘plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorun-menyusi hosil qilishda Autoplay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi

mumkin (1-rasm). Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo‘lib, ular fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta’minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin.



1-rasm



2-rasm

Dastur foydalanuvchilarga obyektlarni o'zaro bog'lashni amalga oshirishga yordam beradigan yuzlab vositalarni taqdim eta oladi. Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarni ham bema'lol qayta ishlash mumkin. Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obyektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin. Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi “niqob”lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday “niqob” sifatida .jpg, .bmp va .png kabi formatdagi fayllardan foydalanilsa ham bo'ladi. Qolaversa, ma'lumotlarni CD uchun tayyorlagan holda uni dasturning o'zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv ko'rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin. Shunday qilib, AutoPlay Media Studio 7.0 ning yangi versiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega holda istemolga chiqarilgan:

1. Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multimedia-illovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta'minotlarni yaratish;
2. Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va boshqalarni biriktira olish xususiyati;
3. Web-ilova yaratishga mo'ljallangan mukammallashtirilgan instrumentlar;
4. XML, SQL va shifrlash mexanizmlari bilan ishlay olishi;
5. RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi;
6. Slayd-shou bilan ishlash imkoniyati;
7. Matn rangini o'zgartirish uchun RadioButton obyektining mavjudligi;
8. Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;
9. Obyektlarni formatlash imkoniyati;
10. Kalit so'zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;
11. CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hokazo.

AutoPlay Media Studio ishga tushirilgach, avvalo loyiha bilan bog'liq bir nechta buyruqlarni o'z ichiga oluvchi muloqot oynasi yuzaga keladi (1-rasm). AutoPlay dasturining ishga tushirilishi Bu muloqot oynasida quyidagi to'rtta taklif ilgari surilgan bo'ladi: 1) Create a new project (Yangi loyiha yaratish); 2) Open an existing project (Yaratilgan loyihalardan birini ochish); 3) Restore last open project (Oxirgi ishlangan loyihani ochish); 4) Exit AutoPlay Media Studio (Dasturdan chiqish). Agar AutoPlay Media Studioning rus tilidagi varianti o'rnatilgan bo'lsa, u holda taklif rus tilida, inglizcha varianti o'rnatilgan bo'lsa, u holda taklif ingliz tilida

bo'ladi. AutoPlay har bir buyruq tugmasi funksiyasi va unga mos scriptlar uchun tayyor kodlar to'plamini ham taqdim etadi. Bu tayyor kodlardan qulayroq foydalanish uchun dasturning ingliz tilidagi varianti bilan ishlagan ma'qul. Shunday qilib, yuqoridagi taklifga binoan biz “Creat a new project” bandini tanlasak, u holda bir nechta yangi loyiha shablonlarini taklif etishdan iborat muloqot oynasi yuzaga keladi. Loyiha shablonlarini tanlashga oid muloqot oynasi biz yaratayotgan ilovamiz tabiatiga qarab, muloqot oynasida mavjud loyihalardan birini tanlashimiz yoki o'zimiz istagan yangi loyihani tashkil qilishimiz mumkin.

AutoPlay dastur oynasi quyidagi tuzilmaga ega:

1. Dastur oynasining sarlavha satri.
2. Dastur oynasining menyu satri.
3. Instrumentlar paneli satri.
4. Project Explorer muloqot oynasi.
5. Properties muloqot oynasi.
6. Holat satri.

Dastur oynasining sarlavha satrida loyiha nomi, dastur nomi va oynani boshqarish elementlari joylashgan (2-rasm). Har qanday amaliy dastur-illovalarni ishlab chiqish uchun istalgan foydalanuvchiga qulay bo'lgan nisbatan soddaroq dasturiy ta'minotni tanlash lozim. O'zgartirish kerak bo'lgan hollarda bu oson hal etiladi. Biz amaliy dasturni ishlab chiqishda AutoPlay Media Studio 7.0 dasturiy muhitidan foydalandik. Ammo buni istalgan boshqa media dasturlardan foydalanib ham amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtda vizual dasturlash tizimlarining ko'pchiligi Web-illovalar, ActiveX komponentlari va boshqa zamonaviy dasturiy texnologiyalar bilan ishlay olish imkoniyatiga ega. Bunday amaliy dasturlarni shu kabi vizual dasturlash tizimlaridan foydalanib yaratish ham mumkin. Amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni taminlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin. AutoPlayda istalgan obyekt uchun bir yoki bir nechta funksiyani bajaruvchi senariy yozish mumkin. Agar ishchi sohadagi biror obyekt bajarishi kerak bo'lgan funksiyani xossalar panelidan foydalanib belgilamoqchi bo'lsak, u holda bitta obyekt uchun faqat bitta funksiya biriktiriladi, xolos. Ammo real sharoitda bitta obyekt bir nechta funksiyani bajarishiga to'g'ri kelib qoladi. Bunday sharoitda xossalar panelidan tanlangan funksiyani bekor qilgan holda zarur bo'lgan har bir funksiya uchun alohida-alohida senariy (script)lar yozish vaziyatdan chiqib ketishga ko'maklashadi. AutoPlay dasturining eng asosiy

kamchiliklaridan biri – uning ishchi sohasidagiobyektlarni klavishli boshqarish imkoni yoq. Shu sababli dastur uchun yo xususiy menyuni tashkil qilish yoki klavishli boshqarishga asoslangan senariy kodlarini yozish muhim ahamiyatga ega.

Autoplay dasturida tayyor maxsulotlar (electron darsliklar) quyidagi ko’rinishlarda bo’lishi mumkin. Sahifalarni ozingizning estetik didingiz orqali kreativ dizaynini yartishingiz mumkin (3-4 rasmlar).



3-rasm



4-rasm

Xulosa qilib aytganda Autoplay dasturida audio, rasmlar, video, internet saytlari, iSpring dasturida yartilgan tayyor fayllar, html fayllar, word, powerpoint, animatsiyalar kabi bir qator dasturiy ta’minotlar bilan ishlash imkoniyatini beradi. Buning yaxshi tarafi shundaki u yuqoridagi barcha fyllarni cheklanmagan hajmda bitta muhitga to’plash va ishlash imkoniyatiga ega. Bu kabi dasturlar bilan dars jarayonlarini integratsiyalash ijobiy samara berishini tajribalarimiz natijalaridan ko’rib kelmoqdamiz.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, O’RQ-637-son, Toshkent 2020 yil.
2. T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovation pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayonida qo’llash”, T. “Talqin”, 2012 yil.
3. <http://www.findsoft.ru/>. AutoPlay Media Studio 7.0 – быстрое создание мультимедиа-приложений
4. <https://www.indigoroze.com/autoplay-media-studio/>
5. X.X. Muratov , SH.A.Yusupova “Dars mashg’ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash” ARES jurnal VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020



## NOGIRONLIGI BO'LGAN INSONLARNI FAOL HAYOTGA INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH

**Mahliyo Salohiddin qizi Salohiddinova**

Guliston davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ular uchun sog'lom va inkluziv muhit yaratish, ularga nisbatan diskriminatsiyani oldini olish. Hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilinishini ta'minlash .

**Kalit so'zlar:** Nogironlik, inkluziv jamiyat, integratsiya, tiflotexnik vositalar , ortopedik vositalar , rehabilitatsiya, abilitatsiya

### АННОТАЦИЯ

Государственная поддержка лиц с ограниченными возможностями, создание для них здоровой и инклюзивной среды, предотвращение их дискриминации. И обеспечить, чтобы люди с ограниченными возможностями воспринимались как равные члены общества.

**Ключевые слова:** Инвалидность, инклюзивное общество, интеграция, тифлотехнические устройства, ортопедические изделия, реабилитация, реабилитация.

### ABSTRACT

State support for persons with disabilities, creation of a healthy and inclusive environment for them, prevention of discrimination against them. And to ensure that persons with disabilities are accepted as equal members of society.

**Keywords:** Disability, inclusive society, integration, typhlotechnical devices, orthopedic devices, rehabilitation, rehabilitation

### KIRISH

Har bir inson jamiyat rivojida asosiy manba sanaladi. Zero, iqtidorsiz insonning o'zi bo'lmaydi biz uning is'tedodli tomonlarini ilg'ab uni rivojlantira olsak bas. So'nggi yillarda O'zbekiston nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoyalshga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan yangi standartlarni ishlab chiqilishi ularni jamiyat hayotiga tadbiiq etilishi nafaqat nogironligi bo'lgan

shaxslar turmush sifatining o'sishiga balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham xizmat qiladi Tarixiy nuqtai nazardan ba'zi bir xalqlar nogironlarga ijobiy ,ayrimlari esa salbiy munosabatda bo'lishgan .Qadim zamonlardan buyon og'ir kasallikka chalingan yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning yashashi davolanishi va o'qishi masalasida ko'plab gumanistik fikrlar ilgari surilgan . Jamiyatda har bir inson teng huquqli, yaratilgan qulaylik va imkoniyatlardan barcha birdek foydalanishga haqli.

”Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning1-moddasida shunday deyilgan; “hamma odamlar o'z qadr-qimmatini va huquqlarida erkin bo'lib tug'iladilar .Ularga aql hamda vijdon ato qilingan ,binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabat qilishlari kerak.”

Demografik vaziyat, kasallanish va nogironlik aholi umuman millat sog'lig'ining asosiy ko'rsatkichlari deya ta'riflanadi. Aynan, mana shu ko'rsatkichlar davlat va hukumatlar nazoratida – O'zbekiston va xorijda ham. O'zbekistonning zamonaviy ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishdir.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun har taraflama qulay va bexatar muhit yaratish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.Xususan prezidentning 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni bilan tashkil etilgan “Ijtimoiy himoya milliy agentligi” ham aynan nogironlar ,boquvchisini yo'qotgan shaxslar,yolg'iz keksalar va qator shunga o'xshash ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan insonlar bilan tizimli hamda kompleks ishlash maqsadida tashkil etildi.Xususan rus olimasi E.I.Xolostovaning “Nogironlar bilan ijtimoiy ish” kitobida nogironlarni reabilitatsiya va abilitatsiyasi qilishni ta'minlash .Ularga psixologik ,ruhiy va huquqiy ko'mak berish umuman olganda nogironlar bilan individual tarzda ijtimoiy ish olib borish usullari yoritib o'tilgan.Bundan tashqari U.Bo'tayev,N.Latipova,A.Abduxalilov,N.Saidovalar tomonidan yozilgan” Oliy o'quv yurtlarida to'siqlarsiz muhit yaratish “o'quv qo'llanmasida ham nogironligi bo'lgan shaxslarga jamiyatda va oliy ta'limda faol harakati va integratsiyasini ta'minlash zarurligiga alohida to'xtalgan hamda qator chet el mamlakatlarida nogironlar uchun jamiyatda va ta'lim tizimida yaratilgan imkoniyatlar yoritilgan.

O'zbekistonda ham nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy,ijtimoiy,huquqiy,siyosiy jihatdan himoyalash maqsadida qator farmoyish va hujjatlar qabul qilingan .Bularning barchasi nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini ta'minlash uchundir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nogironlik bu –kasallik shikastlanish mayib- majruhlik baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo’qotish, jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli himoyaga muhtoj bo’lgan shaxslardir. O’zbekistonda Nogironlik Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan nogironlik konvensiyasi nogironligi bo’lgan shaxslarning xalqaro hujjati hisoblanadi. Konvensiya nogironlarning huquqlari va qadr-qimmatini himoyalash ularga nisbatan shafqatsiz xatti-harakatlar va diskriminatsiyani oldini olishga qaratilgan. Konvensiyaga a’zo davlatlar o’z mamlakatidagi nogironlarning inson huquqlaridan to’liq foydalanishini rag’batlantirishi, himoya qilishni ta’minlash va nogironlarni qonun oldida to’liq tenglikdan foydalanishini kafolatlashlari shart. Konvensiya nogironlar huquqlari bo’yicha global harakatda asosiy katalizator bo’lib, nogironlarni xayriya, tibbiy muolaja va ijtimoiy himoya obyekt sifatida ko’rish ularga jamiyatning to’liq va teng huquqli a’zolari sifatida munosabat qilish imkonini beradi. Konvensiyaning asosiy g’oyasi shundan iboratki, nogironligi bo’lgan shaxslar barcha inson huquqlari va erkinliklaridan kamsitishlarsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak.<sup>1</sup>

Nogironlik bo’yicha jahon hisoboti ma’lumotiga ko’ra, bugungi kunda dunyoda 1,5 mlrdan ortiq turli xildagi nogiron insonlar istiqomat qiladi. Mamlakatimizda esa bu ko’rsatkich 845,3 mingtani tashkil etadi.

Davlatimizda nogironligi bo’lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, to’siqsiz muhit yaratish, jamiyatga integratsiyasini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda davlatimiz rahbarining bu borada muhim farmon va qarorlari qabul qilinganligi nogironligi bo’lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni hayotga qiziqishini oshirish, jamiyat hayotida faol qatnashishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So’nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko’rsatish ko’lami va turlarini kengaytirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e’lon qilingan ijtimoiy davlat tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so’zsiz ta’minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatish sifatini tubdan takomillashtirish hamda mazkur sohaga ilg’or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsad qilib belgilab olingan.

<sup>1</sup>[ <https://aniq.uz/statistika/dunyo>]

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – nogironligi bo‘lgan shaxslarning Konstitutsiyamizda ko‘zda tutilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari hamda O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarga muvofiq holda, boshqa fuqarolar bilan tengligini ta’minlash hisoblanadi.

Albatta, har bir sohaning rivojlanishi, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari bilan bog‘liq masalalarni hal etish, avvalo, qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda qonunchilikka muhim o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Ushbu soha huquqiy tomondan to‘liq qamrab olindi. Masalan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta‘lim olishi, ilm o‘rganishi, kasb tanlashi, hunar o‘rganishi borasidagi huquqlarini amalga oshirish masalasida Mehnat kodeksiga, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunga yangi me‘yorlar kiritildi. Qonunchiligimizga inkluziv ta‘lim va uni yanada takomillashtirish masalalari ham kiritib o‘tilgan. O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash qo‘mitasi ekspertlar kengashi a‘zosi Oybek Isoqov qonun loyihasida inkluziv ta‘limga ta‘rif berishdan boshlash kerakligini ta’kidladi. U quyidagi ta‘rifni qonunga kiritishni taklif qiladi: “Inkluziv ta‘lim — barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta‘lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir” deya ta’kidlagan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi 2021 yil 7 iyunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingani ushbu sohada samarali islohotlarni davom ettirishning yorqin namunasi bo‘ldi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash hamda himoya qilish masalalari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda. Bu o‘rinda Konstitutsiya, 40 dan ziyod qonun va 160 dan ortiq qonunosti hujjati ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur tartibda o‘rganildi. Mazkur jarayonda aholining keng qatlamlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar vakolatxonalarini yuqori faollik va daxldorlik hissini namoyon qildilar.

Bir necha yillar davomida nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qiladigan jamoat tashkilotlarini davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash masalasi ko'tarib kelinardi. Bunday tashkilotlar faoliyati nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Lekin ularning moddiy-texnika bazasi, vakolatlari, imkoniyatlari cheklanib qolgan edi. Shuning uchun birinchi marta mana shu tashkilotlarga davlat tomonidan 1 milliard so'm subsidiya ajratildi. Bu yordam orqali O'zbekiston Nogironlar jamiyati va Nogironlar assotsiatsiyasi o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yib, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini, manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sifatli ta'lim olish bugungi kunda har bir insonning ajralmas huquqlaridan biri hisoblanadi. Har bir inson o'zining xususiyat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishga intiladi. Zero, aynan bugungi kunda muvaffaqiyatga erishishning asosiy kaliti bilimdir. Shu nuqtayi nazardan, nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim olishlari uchun to'siqsiz muhit yaratish, nogironlikka oid ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. 2018-yildan boshlab, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'limga qabul qilishning 2 foizlik kvotasi e'lon qilindi. Bu shuningdek nogironligi bo'lgan shaxsning hayotga qiziqishiga hamda o'z kelajagiga ishonch bilan qarashiga ham katta turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda nogironligi bo'lgan talabalarning soni keskin ortishi kuzatilmoqda. Bu juda ham quvonarli holat.

Nogironligi bo'lgan talabalarning keskin oshishi, o'z navbatida, ular uchun to'siqsiz muhitni ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Zero, to'siqsiz muhit bugungi kunda nafaqat jahonda, balki mamlakatimizda ham rivojlanayotgan inklyuziv ta'limning asosiy shartidir. Inklyuziv ta'lim, bu umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, hamma uchun, shu jumladan alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'lim olish imkoniyatini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilgan holda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim- maxsus ehtiyojga ega, nogiron bo'lgan o'quvchilar faqat maxsus o'quv muassasalarda emas, balki nogironligi bo'lmagan o'quvchilar o'qiydigan umumta'lim o'quv muassasalarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa o'quv muassasa ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishlari, o'quv muassasa darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi zarur.

Inklyuziv ta'lim o'quvchilarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiladigan va barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan integratsiyalashgan muhitdir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni normal rivojlanishdagi o'quvchilar

bilan teng huquqlilik asosida ta’lim-tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli o’quvchilarga doimo o’z oilasi mahallasi va qarindosh-urug’lari davrasida bo’lishga imkon beradi. O’quvchilarni oilasidan, uyidan uzoqda bo’lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi, hamjamiyat hayotida ishtirok etish huquqiga to’sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo’lgan bola diydasi qattiq bo’lib o’sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Inkluziv ta’lim ,ta’lim sifatini yanada oshirishda katalizator bo’lib xizmat qiladi.

Respublika ta’lim markazi YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-yilda inklyuziv ta’lim mavzusida seminar o’tkazib, uning tavsiyalariga asosan Respublika Ta’lim Markazining maxsus ta’lim bo’limi qoshida –Inklyuziv ta’lim resurs markazi tashkil etildi. Nazariy hamda amaliy jihatdan jahon mamlakatlarida inkluziv ta’lim shakllanishi hamda rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi.

Xususan, Buyuk Britaniya- maxsus ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun inklyuziv ta’lim sohasidagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Buyuk Britaniya ta’lim tizimi sof mafkuraviy prinsiplarga asoslanadi. Ularning fundamentalligi – 5 yoshdan 16 yoshgacha bo’lgan barcha o’quvchilar bilan to’liq o’quv maskani ta’limi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash hisoblanadi.

Yaponiyada nogironligi bo’lgan o’quvchilarni jamiyatga jalb qilish o’quvchilar bog’chasidan boshlanadi va o’quv maskanining eng yuqori darajasigacha davom etadi. Yoshligidan boshlab o’quvchilarga nogironligi bo’lgan o’quvchilarga nisbatan insonparvarlik munosabati o’rgatiladi va tashqi yordamga muhtoj odamlarga g’amxo’rlik qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Yaponiyada butun infratuzilma nogiron inson qiyin vaziyatga tushib qolmasligini o’ylab ishga tushirilgan .Yaponiyada inkluziv ta’limni amalga oshirish uchun o’qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o’tadilar. 2009-yilning 8-dekabrida Yaponiyada nogironligi bo’lgan o’quvchilar uchun ta’lim tizimini isloh qilish bo’yicha shtab tashkil etildi.Unda nogironlar uchun ta’lim jarayonlarini tashkil etishning barcha jihatlari yoritib o’tilgan .

Nogironligi bo’lgan shaxslarga nafaqat ta’limda balki boshqa ko’plab sohalarda ham imtiyoz va qulayliklar yaratilgan .Xususan sog’liqni saqlash ,soliq,pensiya tayinlash va uni olish shular jumlasidandir.<sup>2</sup>

Amaldagi “Mehnat kodeksi” ning 423-moddasiga ko’ra ,”nogironligi bo’lgan shaxslarga “Aholi bandligi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan ish

---

<sup>2</sup>[ Mehnat kodeksi.2023.01.04]

o‘rinlarining eng kam soni hisobidan zaxiradagi ish o‘rinlariga mahalliy mehnat organlari yo‘llanmasiga ko‘ra ishga joylashish kafolatlanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan, ularning sog‘lig‘iga xavf soladigan faoliyatlarda ish olib borishi ta‘qiqlanadi.<sup>3</sup>

Qat‘iy belgilangan soliq stavkasi to‘lovchisi I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat‘i nazar, oyiga qat‘iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorini to‘laydi. I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar mulkida bo‘lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi.

Hukumatning 341-sonli qaroriga asosan nogironligi bor yoshlarga o‘qish yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiya ajratiladi.

Bugungi kunda yangilayotgan O‘zbekistonda ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan siyosat o‘zining yangi ko‘rinishiga ega bo‘lmoqda. Bunga ijtimoiy davlat kabi tushunchalarini kirib kelayotganligi misol bo‘la oladi. O‘z navbatida ijtimoiy davlat inklyuziv jamiyat qurilishini taqozo etadi, chunki, aynan ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri har bir fuqaro uchun teng inkoniyatlarni yaratishdir.

#### **XULOSA:**

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha shart-sharoitlar fuqarolarning baxtli, to‘la -to‘kis yashashlari uchun qilinmoqda. Shunday ekan ushbu imkoniyat hamda qulayliklardan barcha insonlar birdek foydalanishga haqli.<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasi “o‘zbekiston respublikasi fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib jinsi, irqi, tili, dini, millati va ijtimoiy mavqelaridan qat‘iy nazar qonun oldida tengdirlar” deb belgilab o‘tilganligi bejiz emas albatta. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni faol hayotga integratsiyasini ta‘minlash, nafaqat O‘zbekistonning balki dunyo mamlakatlarining eng og‘riqli nuqtasi sanaladi. Shu sababdan ham ushbu sharoitda yordamga muhtoj insonlarni integratsiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta‘lim turini tanlash lozim. Xulosa sifatida yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, xorijiy mamlakatlarning nogironligi bo‘lgan shaxslar integratsiyasi hamda inklyuziv ta‘limga bo‘lgan yo‘li keng ko‘lamli va ziddiyatli jarayon bo‘lib, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o‘zgarishlarga olib keladigan ushbu toifadagi

<sup>3</sup>[ <https://advice.uz/oz/category/590>]

<sup>4</sup>[<https://lex.uz/docs/-6445145>]

o'quvchilarga nisbatan ijtimoiy ongini bosqichma-bosqich tubdan o'zgartirish tarixiy va nazariy shart-sharoitlarni taqozo etishini yana bir bor ta'kidlash lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5049511>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-iyundagi «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqidagi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5447413>
3. A. Abduxalilov Nogironlik fenomeniga doir sotsiologik nazariyalarning tahlili. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali.// 2022-yil, 5-tom, №2. B. 30-44
4. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-dekabrda «Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5790722>
5. U. Bo'tayev. O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimida olib borilayotgan islohotlarda yoshlarning o'rni: muammolar va yechimlar.//Ta'lim, fan va innovatsiya jurnal. T; 2021. №1. B. 104-108.
6. Oliy o'quv yurtlarida “to'siqsiz muhitni ta'minlash”jarayonlarining metodologik asoslari darsligi
7. E.I.Xolostova “Nogironlar bilan ijtimoiy ish” kitobi 2006
8. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
9. <https://advice.uz/oz/category/590>
10. <https://lex.uz/docs/-6445145>
11. <https://lex.uz/docs/-6391378>
12. <https://lex.uz/acts/-1372495>
13. <https://aniq.uz/statistika/dunyo>



## JAHONGIR AHMEDOV IJODIDA O‘ZBEK KINO JANRINI TUTGAN O‘RNI

**Z.I Arzibayeva**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mustaqillikdan keyingi davrlarda qariyb mavjud barcha sohalarda katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa san’at va madaniyat sohasidagi yaratigan imkoniyatlar samarasi, yosh avlod tarbiyasi va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshib boririshida katta omil bo‘lmoqda. Ayniqsa, kino sohasidagi rivojlanishlar samarasi shu yigirma yil ichida xalqning madaniyat va san’atga bo‘lgan qarashlarini ham tubdan o‘zgartira oldi deyish mumkin. Bu maqola aynan kinorejissurada tendensiyalar, tarixiy-nazariy xususiyatlar har tomonlama ilmiy tahliliga qaratilgan. jahon kino san’atida rejissorlik tendensiyasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlariga urg‘u berilgan. O‘zbek kinosi taraqqiyotida rejissorlik tendensiyalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari atroflicha tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kino, film, rejissura, prodysuser, industriya, san’at, akter, mahorat.

*Kino – bu siz ko‘rmaydigan odamlar bilan  
muloqot qilish zaruriyati*

O‘zbek kino san’at olamida bugungi kunga qadar katta o‘zgarish va rivojlanish bosqichlari kuzatilmoda. Ayniqsa, ijodkorlar ish jarayoni uchun talab etiladigan davlat standartlariga mos texnik uskuna va jihozlarning zamonaviy ko‘rinishlarini kirib kelishi natijasida, filmlar suratga olish jarayonidagi imkoniyatlar kengaymoqda, sifati uchun esa yetarli darajada ijobiy ta’siri ham kuzatilmoqda. Yaratilayotgan filmlar o‘zbek kino industriyasi rivojlanishi, taraqqiyoti, targ‘ibotida bu yangilanish ko‘p jihatdan jahon miqyosiga ko‘tarilishimizda muhimlik kasb etadi. Vaholanki, bu texnik rivojlanish qaysidir ma’noda kino olamidagi ayrim aktyor va ijodkorlarning professionallik darajasi qanday bo‘lsada, uni sun’iy ravishda bo‘rttirish kabi jihatarda ham o‘zini namoyon qilayotganigini sir emas. Ayni paytda biz, bu xaqda emas, balki kino san’atining bugungi kundagi o‘rni va rivoji yo‘lida o‘z xissasini qo‘shib kelayotgan davr ijodkori rejissyori, o‘z kasbini ustasi, zamondoshimiz Jahongir Axmedov ijodiy faoliyati va kino san’atidagi o‘rni haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Shu kunga qadar ikki asr orasida yaratilgan, xalqimizning e’tiborini o‘ziga jalb qila olgan, o‘zbek filmlar retrosi mavjudki, xattoki filmdagi obrazlarni va mashhur aktyorlarning

iboralari, ko‘pchilik tomoshabinlar orasida mashxurlikka erishib bo‘lan. “Sen yetim emasan”, “Maftuningman”, “Yor-Yor, “Mahallad duv-duv gap” shu kabi retro filmlar jumlasidandir. Tarixiy va real xayotiy voqealarga asoslangan bu filmlar hanuzgacha, makon, zamon, muhit va yosh tanlamaydi, Hamisha dolzarbligini saqlab kelmoqda. Sabab, bu kabi filmlar ijodkorlarining xar biri o‘z davrida, kasbining fidoyisi va mutaxassislari ekanliklari bilan bahonadi.

Mustqaqillik yillaridan keyingi davrga kelib, qariyib barcha sohada yetralicha rivojlanishi, o‘sishi va taraqqiyotini kuzatdik. San‘at olamida, aynan kino san‘atida ham bu kabi shiddatdi rivojlanish, o‘zgarishlar xam so‘zlarimiz isbotidir. Aktyorlik, rejissyorlik, prodyusserlik sohasi ham katta taraqqiyot bochqichini bosib o‘tmoqda.

Bu borada kino san‘ati ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, barcha soha jabhalari kabi o‘zbek kino industriyasi tarkibidagi rejissura ham shiddat bilan rivojdanishi kuzatilayapti.

Bu o‘rinda Ahmedov Jahongir ijodiy faolitag nazar solsak.

Jahongir Axmedov Adilxodjevich 1983-yil 4-fevralda Toshkent viloyatida tug‘ilgan. 25-sonli o‘rta maktabni tamomlagan. 2002-2008 yillarda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining rejissyorlik yo‘nalishida bakalavriyat va magistratura bosqichida tahsil olgan. O‘zbekiston Davlat san‘at instituti dotsenti Jahongir Ahmedov katta kinodagi faoliyatini 2009 yilda “Uylanish” romantik komediyasini suratga olishdan boshlagan. U bu filmga o‘zi ssenariy yozdi va rejissyorlik qildi. Bu uning tom ma‘noda rejissyorlik ishidagi ilk qadami bo‘ldi. Zero, film kino muxlislari tomonidan juda yaxshi kutib olindi. Mallif bu bilan to‘xtab qolmadi, Ijodida 2010-yilda “Omad” va aynan o‘sha yili “Tundan tonggacha”, 2012-yil “Tilim qursin” 2016-yil “Majnun” kabi kinofilmlarini yaratib, o‘z muxlislari orasida mashhurlikka erishdi deyish mumkin.

Uning mashxurlik darajasiga molik yana bir mualliflik ishi 2018-yilda ekran yuzini ko‘rdi. Xorazm vazirlaridan biri, tarixiy shaxs “Islom Xo‘ja” filminidir.

Bu film nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham namoyish etildi va tomomshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Ijodkor 2018 yil - O‘zbekiston kinematografchilar ijodiy uyushmasi boshqaruvi a‘zosi sifatida o‘z faoliyatini davom ettirdi. Oradan bir yil o‘tgach, 2019 yil - O‘zbekiston Kinematografiya agentligi badiiy kengashi a‘zolgiga saylandi.

2020 yil – O‘zbekiston Rassomlar va ijrochilarning mualliflik huquqi palatasi boshqaruvi a‘zosi sifatida katta hajmdagi ijodiy-tashkiliy ishlarga raxbarlik qila boshladi.

Shu navbatda 2020-yilda ijodkor Ikkinchi jahon urushi voqealari haqida hikoya qiluvchi “Ilhaq” dramatik filmi yaratilishiga qo‘l urdi. Film rejissyori va ssenariy muallifi sifatida uning bu ijodiy ishi boshqa filmlardan tubdan farqlanardi. Film taqdimoti kinoteatlarda emas, balki

telekanallarda namoyish etildi, chunki u 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab qulflangan edi. Tanqidchilar “Ilhaq” filmini yuqori baholadilar. Oz vaqt ichida film mashxurlikka erishib ulgurdi. Qator festivallarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan, va tomoshabinlarda muallifga nisbatan va o‘zbek kinosiga nisbatan munosabat va qarashlar o‘zgargandi deyish mumkin. Xususan, Belorussiyadagi “Listopad” festivalida eng yaxshi film deb topildi. O‘zbekistonda esa, yilning eng yaxshi film uchun “Oltin Humo” mukofoti sovrindori ham bo‘ldi. Uning ijodiy ishlari va kino san’atidagi mavqei va faloiyati munosib baholanib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlandi..

Milliy komediyalarni targ‘iboti va ishlab chiqarishda yosh rejissyorning ham munosib izlanishlar taqsinga loyiq. Xususan, uning mashhur filmlaridan biri ikki qismli “Tundan tonggacha” komediyasi ham tomoshabinlar mehrini qozongan. Film yetakchi xatti-harakat tizimiga asoslangan, unga ko‘ra bosh qahramon film davomida bir maqsad (banan topish) yo‘lida harakatlanadi va maqsadiga yetishi bilan yakun topadi. Filmda umuman ortiqcha epizodni sezmaydiz. Umuman, voqealar ketma-ketligi va tanlangan xarakterlar film badiiy yaxlitligini ta’minlagan.

Filmning ikkinchi qismida esa mana shu sarguzashtlar bilan dunyoga kelgan bolakay asosiy dramaturgik vaziyatni tug‘diradi.

Ikki film ham tomoshabinlar tomonidan samimiy qabul qilingan va haligacha sevib tomosha qilinadi. Filmning ssenariy muallifi va rejissyori aynan Jahongir Ahmedov, u o‘z filmiga professional tarzda yondashishga harakat qilgan. Uning bu harakati o‘zini oqlagan deb bemalol ayta olamiz.

Film operatori Iqbol Meliqo‘ziyev kadrlaridan ham ko‘nglingiz to‘ladi. Bu film bastakori Doniyor Agzamov ham xar bir ko‘rinish va aktyor holati va xarakteriga mos ravishda musiqiy leymotiv (obraz uchun talangan musiqiy mavzu)larini o‘ziga xos talqinda ifoda etishga muyassar bo‘lgan. YA’ni, doimgidek o‘z ishining ustasi musiqiy bezakka alohida mehr va e’tibor bergan. Filmning muvaffaqiyati albatta ijodiy jamoa va yig‘ilgan aktyorlar ansablini to‘g‘ri tanlanganligidadir. Nafaqat filmdagi asosiy va bosh xaqramon obrazlar yaratuvchilar ustunligi, balki, sahna ortidagi barcha ijodiy guruhning hamjihatligi, mukammalligi uning yaxlit mezoni hamdir deyish mumkin.

Bular qatoria Jahongir Ahmedov ssenariysi va Alisher Uzoqov rejissyorligidagi “Mening akam bo‘ydoq” va “Endi dadam bo‘ydoq” filmlari ham an’anaviy komediya elementlariga mosdir. Bu filda ham kinokomediya butun ijodiy guruh janr va badiiy film mohiyatini teran anglagan holda o‘z vazifalarini a’lo darajada bajarganliklarini kuzatamiz.

Filmdagi bosh rollarni mohir yetuk aktyorlardan Matyoqub Matchonov, Ra’no Yarasheva, Alisher Uzoqov, Madina Mumtoz, Tolib Mo‘minov va Sitora Farmonovalar ijro etishgan. Asar mualliflarining professional yondashuvi bilan xarakterlar yaqqol bir-biridan ajralib turadi. Qahramonlar butun film davomida o‘z pozitsiyalariga sodiq, vaziyatlarga real va komik munosabatda bo‘lishadi. Filmda postanovkachi operator Sherzod Shoxalilov, uning kadrlarida zamonaviylik va tasviriy yechimlar ko‘p uchraydi. Umuman film montaji va grafikasida ham kreativlik sezilib turadi. Filmning ikki qismi ham professional ishlangan. Ayniqsa, “Endi dadam bo‘ydoq” filmi tomoshabinlar mehrini ko‘proq qozongan. Film 2012 yilda MMTV taqdirlash marosimida ikkita mukofot ya’ni “Yilning eng yaxshi filmi” va “Eng yaxshi rejissyor” nominatsiyalarini qo‘lga kiritgan.

Jahongir Ahmedov o‘z faoliyati davomida rejissyor sifatida 16 ta, ssenariy muallifi sifatida esa 30 dan ortiq badiiy film suratga olgan.

Xalqimiz “Tundan tonggacha”, “Oling quda-bering quda” kabi milliy kinokomediyalarni sevib tomosha qilishadi. Ushbu filmlar rejissyori Jahongir Axmedov muxlislar e’tiboriga yangi, milliy yo‘nalishdagi kinokomediyani taqdim etdi. Film nomi xam antiqa, xam qiziq! “Tilim qursin!”. Bu film asosida ayrim hollarda insonlarning ijobiy va salbiy sifatlari, jamiyatimizda tez-tez uchraydigan kibrli insonlarning o‘zaro munosabatlari, o‘rinli yumor ostida ochib berilgan. Matyoqub Matchonov, Asqar Xikmatov, Sevara Soliyeva, Muxammad iso Abdulxairov kabi komediyani chinakam ustalari ijrosidan aynan “Tilim qursin” milliy komediyasida o‘z aktyorlik mahoratini namoyish etishgan. Bu oilaviy komediya ham kinomuxlisleri tomonidan iliq kutib olindi.

Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli kino saroyida 6 mart kuni rejissyor Jahongir Ahmedovning «Majnun» filmi premyerasi bo‘lib o‘tdi. Rejissyori tomonidan xususiy kinosektordagi «eng uzoq vaqt suratga olingan film» [deya ta’riflangan](#),

“Majnun” filmining rejissyori Jahongir Ahmedov o‘zining intervyularidan birida Rustam Sa’diyevning «Baron» filmi haqida savolga javob berar ekan: «‘Baron’ yaxshi film emas», — deya javob qaytaradi. «Unda qanday film?», — degan navbatdagi savolga: «‘Baron’ — zo‘r film!», — deya javob beradi. Xuddi shunday — «Majnun» ham yaxshi film emas, zo‘r film.

Navoiy nomli kino saroyida o‘tgan premyerada 1,8 ming kishilik va 450 kishilik zallarni to‘ldirib, shuningdek, yana taxminan 200 nafari tik oyoqda turib ko‘rgan «Majnun» filmi uchun qarsaklar bilan kutib olshgan.

Aktyorlar jamoasi, sifat darajasi, saviya haqida ko‘p gapirish mumkin. “Zamonaviy ham sifatli film suratga olish uchun nima kerak bo‘lsa, hammasi qilindi. Ulug‘bek Qodirov, Asal Shodiyeva, Matyoqub Matchonov, Ra’no Zokirova, Muhammadiso Abdulxairov, Elyor Nosirov,

Ra’no Shodiyeva singari aktyorlar jamoasi yig‘ilgan. Aktyorlar tarkibidan tortib, operatorlik ishi, montaj, grimchilar, texnika, liboschilar, rassomlar masalasida ham alohida ish olib borildi.- deydi muallif o‘z intervyularida.

Matyoqub Matchonov va Muhammadiso Abdulxairovning ishtiroki haqida ham iliq fikrlarni aytish mumkin. “Matyoqub Matchonov va Muhammadiso Abdulxairov ‘Majnun’ filmida umuman kutilmagan — vajohatli, og‘ir, to‘pori odamlar obrazini yaratgan. Ularga xos komedik unsurlarni ‘Majnun’da ko‘rmaysiz, ular 100 foiz o‘zgargan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, aynan rejiisor sifatida mustaqillikdan keyingi davr mobaynida kino san’ati olamida o‘z o‘rni va maktabini yarata olgan, nafaqat O‘zbekistonda va qo‘shni davlatlarda ham o‘z muxlislariga ega, o‘zbek kino san’atini targ‘ibotchisi sifatida Jaxongir Axmedov faoliyati, ijod mahsuli katta axamiyatga ega.

- kino san’atida yetrali tajriba va bilim egasi ekanligi tomoshabinlarga taqdim etayotgan filmlarda o‘z aksini bermoqda;

- kelajak yosh avlod uchun zamoniviy va katta avlod vakillariga ham birdek mos mavzu va g‘oyalarni tanlay bilishi, tomoshabinlarni mexrini qozonishi ham uning kelajakdagi umidli ijodkor sifatida yangi filmlar yaratilishiga tom ma’noda ishoch bera oladi;

- kino san’ati olamida o‘sib kelayotgan yosh ijodkorlar uchun yetari tajribali maktab yarata olgan ijodkor;

- uning muvaffaqiyati va yutug‘i, mukammalilik omili ko‘p jihatdan, film uchun saviyali mahoratli aktyorlar jamoasini to‘g‘ri tanlay bilishi.

#### Fodalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev M. Kino asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1993.
2. Muhamedaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. – T.: Musiqa, 2009.
3. Muhamedov M. Rejissura asoslari. – T.: O‘zDismi, 2008
4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr. 2000.

## ПРИМЕНЕНИЕ КОНСТРУКТОРА СИТУАЦИОННЫХ ЗАДАЧ Л.С. ИЛЮШИНА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Ибодуллаева Ф.И.,**

**науч. руководитель Дубровская К.А.,**

Узбекистан, СамГУ им. Ш. Рашидова

### АННОТАЦИЯ

в данной статье будет рассмотрено применение конструктора ситуационных задач Л.С. Илюшина на занятиях по русскому языку в 5 классе по теме «Фразеологизмы в русском языке», а также показан наглядный пример составления поурочного плана занятия с использованием конструктора.

**Ключевые слова:** конструктор, ситуационные задачи, таксономия целей Б.Блума, применение, понимание, анализ, синтез, оценка.

Конструктор ситуационных задач Л.С. Илюшина – это своеобразная «лестница» (ознакомление, понимание, применение, анализ, синтез, оценка), которая предполагает постепенное «восхождение» обучающихся к усвоению знаний, причём усвоению не репродуктивному, а деятельностному.

Korxonalar ikki mezonga ko'ra mikro, kichik, o'rta va yiriklarga bo'linadi: yillik daromad miqdori va xodimlar soni. Har qanday korxonada istalgan miqdorda kredit olish huquqiga ega. Asosiy shart - to'lov qobiliyati va kredit beruvchi bankda hisob raqamiga ega bo'lish.

**Kalit so'zlar:** mahsulot qatori, kredit, bank, foiz, shartlar

В рамках программы финансирования малого бизнеса банки представляют широкий спектр кредитов для бизнеса.



Продуктовая линейка позволит решить любые задачи, связанные с развитием бизнеса, обеспечением его конкурентоспособности.

При принятии решения о предоставлении кредита любой банк основывается на информации о реальном состоянии бизнеса потенциального заемщика. Основное внимание уделяется перспективам развития предлагаемого для финансирования бизнеса, а не формальным показателям.

Индивидуальный подход к каждому клиенту позволяет банку предлагать кредиты малому бизнесу на наиболее выгодных для клиентов условиях.

Процентная ставка за пользование кредитными средствами устанавливается исходя из рыночной конъюнктуры и финансового состояния заемщика. Проценты начисляются на остаток ссудной задолженности, что позволяет клиентам избежать дополнительных затрат.

Кредитование и порядок оформления документации осуществляется на основании действующей Кредитной политики и Положения о кредитовании Банка.

#### Основные условия банка

- Предоставление кредитных услуг финансово устойчивым клиентам с постоянным денежным потоком;

- Субъекты предпринимательства, работающие с кредитом, открывают свой основной счет в банке кредитования;

- Все кредитные услуги (лизинг, факторинг, торговое финансирование, банковская гарантия и другие кредитные услуги) могут быть указаны в генеральном договоре;

- В рамках каждой линии с клиентом заключается отдельный кредитный договор;

- Кредит на пополнение оборотных средств в рамках линии выделяется через несколько счетов краткосрочного кредитования. После того, как клиент использовал кредитные средства, выделенные по первоначальному договору, в течение не менее 3 месяцев, подписывается следующий договор и выдается кредит (при этом кредитные средства, выделенные по первоначальному договору, не подлежат полному погашению). Сумма дополнительного кредитного соглашения будет определяться исходя из части кредита, выделенного по предыдущему соглашению. Общая сумма и срок банковских продуктов, предлагаемых клиенту в рамках линии, не должны превышать сумму и срок основного договора.

- Кредитный процент и источник следующих (очередных) кредитных договоров определяются на основании каталога кредитных продуктов и паспорта личности,

действующего на момент заключения кредитного договора, что должно быть отражено в Генеральном договоре.

#### **Виды кредитов для малого бизнеса**

- Экспресс-кредит онлайн
- Пополнение оборотных средств
- Финансирование капитальных затрат
- Рефинансирование
- Овердрафт
- Кредиты на госзаказ
- Под залог недвижимости, в том числе приобретаемой
- Кредитование жилищного строительства

Исходя из статьи, можно сделать вывод, что процесс совершенствования механизма банковского кредитования субъектов малого бизнеса достаточно сложен в осуществлении, но при участии всех сторон, имеющих к этому отношение, оптимизация кредитного механизма возможна. Всем участникам кредитного процесса необходимо стремиться не только к совершенствованию системы кредитования малого бизнеса, но и к развитию малых форм хозяйствования, ведь именно данный сегмент способен повысить уровень экономического развития в стране.

#### **Библиографический список**

1. Кропин, Ю. А. Финансы. Деньги. Кредит: учебник / Ю. А. Кропин, А. З. Намитулина. — Москва: КноРус, 2020. — 368 с. — Текст: непосредственный.
2. Алтапов, Г. Е. Деньги, кредит, банки: учебник / Г. Е. Алтапов, Ю. В. Базулин и др. — М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2020. — 624 с. — Текст: непосредственный.
3. Горбачева, Т. А. Будущее трансграничных платежей с участием цифровых валют нескольких ЦБ / Т. А. Горбачева. — Текст: непосредственный // Вестник Московского университета им. С. Ю. Витте. Серия 1: Экономика и управление. — 2021. — № 3 (38). — С. 13-21. DOI: 10.21777/2587-554X-2021-3-13-2.
4. Гаврилова, Э. Н. Банковский сектор России: современное состояние и тенденции развития / Э. Н. Гаврилова, К. Л. Данаева. — Текст: непосредственный // Вестник Московского университета им. С. Ю. Витте. Серия 1: Экономика и управление. — 2021. — № 1 (36). — С. 7-14. DOI: 10.21777/2587-554X-2021-1-7-14.
5. Kropin, Yu. A. Finansy`. Den`gi. Kredit: uchebnik / Yu. A. Kropin, A. Z. Namitulina. — Moskva: KnoRus, 2020. 368 s.

6. Altapov, G. E. Den`gi, kredit, banki: uchebnyk / G. E. Altapov, Yu. V. Bazulin i dr. — M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2020. — 624 s.
7. Gorbacheva, T. A. Budushhee transgranichny`x platezhej s uchastiem cifrovny`x valyut neskol`kix CzB / T. A. Gorbacheva // Vestnik Moskovskogo universiteta im. S. Yu. Vitte. Seriya 1: E`konomika i upravlenie. — 2021. — № 3 (38). — S. 13-21. DOI: 10.21777/2587-554X-2021-3-13-2.
8. Gavrilova, E`. N. Bankovskij sektor Rossii: sovremennoe sostoyanie i tendencii razvitiya / E`. N. Gavrilova, K. L. Danaeva // Vestnik Moskovskogo universiteta im. S. Yu. Vitte. Seriya 1: E`konomika i upravlenie. — 2021. — № 1 (36). S. 7-14. DOI: 10.21777/2587-554X-2021-1-7-14.

## РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ

Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов

Тошкент давлат Иқтисодиёт Университети “Солиқ ва солиққа тортиш” кафедраси доценти  
(PhD)

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида сунъий интеллектни ривожлантириш асосий долзарб масалалардан бири эканлиги кўрсатилган. Сунъий интеллект соҳасида миллий илмий тадқиқот ва ривожлантириш фаолиятларини тизимли тарзда йўлга қўйишга қаратилган. Сунъий интеллект мамлакатда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда ҳар бир соҳага инновацияларни киритиш имкониятларини ошириши кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** сунъий интеллект, робот, датчик, тепловизор, космик тизимлар, рақамли иқтисодиёт, инновация.

### ABSTRACT

This article shows that the development of artificial intelligence is one of the main topical issues in the Republic of Uzbekistan. It is aimed at systematically establishing national scientific research and development activities in the field of artificial intelligence. Artificial intelligence has been shown to increase the country's ability to develop a digital economy and innovate in every sector.

**Keywords:** artificial intelligence, robot, sensor, thermal imager, space systems, digital economy, innovation.

### КИРИШ

Бугунги долзарб замонда муҳим мавзулардан рақамли технологиялар барча соҳаларга ва одамлар ҳаётига жадал кириб борапти. Мамлакатимизда ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш энг муҳим вазифага айланган.

Президентимизнинг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида 2023 йилга бориб рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотигаги улушини 2, ушбу соҳадаги

хизматлар ҳажмини 3 баравар ошириш, улар экспортини 100 миллион АҚШ долларига етказиш вазифаси қўйилган.<sup>1</sup>

Статистик маълумотларга кўра, рақамли иқтисодиётнинг мамлакатлар ялпи ички маҳсулотидаги улуши АҚШда 10,9 фоиз, Хитойда 10 фоиз, Ҳиндистонда 5,5 фоизини ташкил этади. “Vouchercloud” портали тадқиқотчилари дунёдаги “энг ақлли” 25 давлат рўйхатини эълон қилди. Ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, биринчи ўринни Япония эгаллаган. Кунчиқар юрт тадқиқотнинг асосий кўрсаткичлари — Нобель мукофоти лауреатлари сони, аҳолининг ўртача IQ (ақл-заковат) даражаси, мактаблардаги ўзлаштириш кўрсаткич бўйича ҳам энг юқори баҳога сазовор бўлди.<sup>2</sup>

Кейинги ўринлардан Швейцария, Хитой, АҚШ ва Нидерландия жой олди. Хитой аҳоли ақл-заковат даражаси юқори бўлгани учун учинчи ўринни олган бўлса, АҚШга тўртинчи ўринда жойлашишига Нобель мукофоти лауреатлари сони ёрдам берди. Жанубий Корея, Тайвань ва Сингапур билимли (ақл-заковатли) ёшлар сони бўйича етакчи ўринларда, аммо фақатгина Нобель мукофоти лауреатлари сони камлиги сабабли рейтингда юқорида жойлаша олмади.

#### Асосий қисм

“McKinsey” экспертларининг баҳолаши бўйича, бугунги кунда жаҳон ЯИМнинг қарийб 10 фоизи рақамли активларга тўғри келади, шу билан бирга, уларни ишлаб чиқиш суръати жаҳон иқтисодий ўсишининг 30 фоизига тенг. Рақамли активларнинг ривожланиши акселератор (тезлаштирувчи) ҳаракатига ўхшайди. Рақамли иқтисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Шу боис рақамли иқтисодиётга фаол ўтиш келгуси 5 йилдаги энг устувор вазифаларимиздан бири бўлади. Рақамли технологиялар нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, ортиқча харажатларни, айниқса, коррупцияни кескин камайтиради.

Шу ўринда рақамли иқтисодиёт тушунчасига тўхталиб ўтсак. Бу ўзаро боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш, тақсимлаш, алмашиш, истеъмол қилиш ва бошқарув жараёнларининг (инсонлараро, машиналараро, булутлар ва катта ҳажмдаги рақамлар (BIG

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 17 февраль “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарори.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 17 февраль “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарори.

DATA) орқали) рақамли технологиялар ҳамда интернет ёрдамида маълумот алмашилишни оптималлаштириш орқали катта фойда кўришга қаратилган фаолиятдир.

Шу ўринда алоҳида қайд этиб ўтиш керакки, янги бир уйғониш даври — учинчи Ренессансга пойдевор қўйилаётганлиги истиқболимизнинг улугворлигини намоён этади. Илмсиз, маърифатсиз жамият ва мамлакат тараққиётини тасаввур қилиш мушкулдир.

Рақамли иктисодиётни комплекс инновацион технологияларига қуйидагилар киради:<sup>3</sup> (1-расм)

- 1) Катта хажмли маълумотлар билан ишлаш технологиялари – BIG DATA;
  - 2) Сунъий интеллект –Artificial Intellect;
  - 3) Булутли технологиялар – Cloud Technologies;
  - 4) Мобил технологиялар- e-mobile;
  - 5) Буюмлар интернетети – Internet of Things;
  - 6) Робототехника ва сенсорика;
  - 7) Рақамли электрон платформалар ва экосистемалар;
  - 8) Квант технологиялари;
  - 9) СМАРТ-контрактлар;
  - 10) 4.0 саноат технологиялари
  - 11) Виртуал ва қушимча реаллик технологиялари – Virtual Reality and Augmented Reality (VR, AR);
  - 12) Крауд-сорсинг ва крауд-фондинг технологиялари;
  - 13) Блокчейн технологиялари;
  - 14) Криптовалюталар ва ICO (Initial Coin Offering) технологиялари;
  - 15) 3Д, 4Д-технологиялар.
  - 16) Дрон — технологиялари
- Бугунги мактаб ва ОТМри мутахасисликларини 60 % янгилаш зарур.

Тараққий этган давлатлар қаторига қўшилишимиз учун, энг аввало, илғор замонавий ахборот-коммуникация, интернет ҳамда рақамли технологиялар соҳасидаги билимларни чуқур эгаллаш орқали юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш керак. Шу билан бирга давлатимизда барча соҳаларни рақамлаштириш, жумладан, соғлиқни сақлаш, кадастр, ижтимоий ҳимоя, қишлоқ хўжалиги, таълим йўналишларини рақамлаштириш бўйича амалий жараёнлар бошланди ва тез орада ўзининг ижобий самараларини беради.

<sup>3</sup> Н. Нильсон. Принципы искусственного интеллекта. – М.: Радио и связь, 1985.

Рақамли иқтисодиёт жамиятда муайян ўзгаришларни юзага келтиради, хусусан, унинг меҳнат шaroитларига таъсири сезиларли бўлади. Рақамли трансформация шaroитида автоматлаштириш жараёнларининг кучайиши, сунъий интеллект, улкан маълумотлар билан ишлайдиган аналитик тизимлар, роботлардан фойдаланиш кўламининг ортиши меҳнат ресурслари учун ўринбосар бўлиб хизмат қилади. Натижада бизнес юритиш шaroитлари такомиллашиб ва самарадорлик сезиларли даражада ортади.



#### 1-Расм. Сунъий интеллект технологиялари қайси соҳаларга татбиқ этилмоқда<sup>4</sup>

Рақамлаштиришнинг кундалик ҳаётимизга тезроқ кириб келишини хоҳласак, рақамлаштириш таъсирида турмушимизда турли қулайликлар пайдо бўлсин, десак, рақамлаштириш татбиғида, албатта, тизимли ёндашув лозим. Қаранг, салкам ўн йилдан буён электрон ҳукумат тизимини ривожлантиришга интилиб келамиз.<sup>5</sup>

Рақамлаштириш технологияларини кундалик ҳаётимизга мақсадли жорий қилишда энг муҳими, давлат хизматларини аҳолига таклиф қилиш орқали халқ билан интерфаол мулоқот тезлашмоқда. Бу эса “интеллектуал ҳукумат” тамойиллари асосида аҳоли ва тадбиркорлик субъектларига электрон давлат хизматлари кўрсатиш тизимини янада кенгайтириш нақадар тўғри йўл эканлигини ҳам кўрсатади.

Биринчидан, рақамлаштириш бу “маълумотлар омбори”дир, маълумотлар жуда катта ҳажмдан иборат. Иккинчидан, бизда “улкан маълумотлар” оқимини бошқариш, сақлаш ва қайта ишлаш турли платформаларни кенгайтириш муҳим. Учинчидан, эса мазкур дастурлар ижросини таъминлашда амалга ошириш механизмлари ҳамда молиялаштириш манбалари кўрсатилган бўлса-да, мониторинг жараёнида жамоатчилик назоратини кучайтирилиши муҳим, деб ҳисоблаймиз.

<sup>4</sup> [https://www.google.com/search?sca\\_esv=17147adff2573a58&sca\\_upv](https://www.google.com/search?sca_esv=17147adff2573a58&sca_upv)

<sup>5</sup> Н. Нильсон. Принципы искусственного интеллекта. – М.: Радио и связь, 1985.

Жаҳон банкининг “Рақамли дивидентлар” номли тадқиқоти натижалари мамлакатлар иқтисодиётини ривожлантиришда рақамли иқтисодиётнинг нақадар долзарб ва муҳим масала эканлигини кўрсатади. Хусусан, интернет тезлигининг 10 фоизга юқорилаши мамлакат ЯИМ ўсишига ҳам олиб келади. Ривожланган давлатларда бу кўрсаткич, 1,21 фоизни ташкил этса, ривожланаётган давлатларда 1,38 фоизни ташкил этади.

Рақамли иқтисодиёт ривожланган давлатларда ЯИМ ҳажми ҳам, ЯИМнинг аҳоли сон бошига улуши ҳам юқоридир. Шу жиҳатдан, давлатимиз раҳбарининг бу масалага давлат миқёсида эътибор қаратиши бир мақсадни кўзлайди, у ҳам бўлса, биринчидан, аҳолининг яшаш даражасини юксалтириш, иккинчидан, аҳолининг реал даромадларини оширишдир.

2021 йилнинг 17 февраль куни “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори қабул қилинди. Мазкур Қарордан кўзланган мақсад – “Рақамли Ўзбекистон – 2030” Стратегиясига мувофиқ сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратишдир.<sup>6</sup>

Мазкур қарор билан Сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича 2021–2022 йилларда амалга ошириладиган тажриба-синов лойиҳалар рўйхати тасдиқланди. Жумладан, қуйидаги соҳаларда сунъий интеллект технологиялари қўлланилади:<sup>7</sup>

**Қишлоқ хўжалиги соҳасида:** ерни масофадан зондлаш маълумотлари асосида тупроқ ва қишлоқ хўжалиги экинлари ҳолатини, шунингдек, қишлоқ хўжалиги техникаси, шу жумладан, комбайнлар ишини мониторинг қилиш;

**Банк соҳасида:** тижорат банклари фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш ва улар томонидан тартибга солиш талаблари (SubTech ва RegTech) бажарилишини соддалаштириш, шунингдек, банк хизматлари кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва кредит таваккалчиликларини баҳолаш учун;

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 17 февраль “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарори.

<sup>7</sup> Н. Нильсон. Принципы искусственного интеллекта. – М.: Радио и связь, 1985.



**Молия соҳасида:** бюджет харажатлари, пенсия, ижтимоий ва суғурта тўловлари, шунингдек, нафақа тўловларини таҳлил қилиш ва самарадорлигини ошириш учун;

**Транспорт соҳасида:** локомотивларни бошқариш жараёнида уларнинг ҳаракатини кузатиб бориш ва хавfli вазиятларда машинистларни огоҳлантиришда, жамоат транспорти ҳаракатини таҳлил қилиш ва уларнинг оптимал йўналишларини аниқлашда, шунингдек, автомобиль ҳаракатини ва транспортдаги тирбандликларни мониторинг қилишда;

**Соғлиқни сақлаш соҳасида:** инсон ўпкасининг компьютер томографияси таҳлили асосида пневмонияни аниқлаш ҳамда маммография таҳлили асосида кўкрак беzi саратонига илк босқичда ташхис қўйиш учун;

**Электрон ҳукумат соҳасида:** электрон давлат ва молия хизматларини кўрсатишда фойдаланувчиларни масофадан туриб биометрик идентификациялаш (Face-ID) учун.

Илм-фан ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал тараққий этиб бораётган бугунги шароитда дунёнинг ривожланган мамлакатларида давлат ва жамият бошқаруви, иқтисодиёт, саноат, ижтимоий ҳимоя, таълим, тиббиёт, бандлик, қишлоқ ҳўжалиги, мудофаа, хавфсизлик, туризм ва бошқа соҳаларда ахборот-коммуникация технологиялари ва сунъий интеллект имкониятларидан кенг фойдаланиш асосий масалалардан бўлиб қолмоқда.<sup>8</sup>

Ўзбекистонда ҳам ахборот-коммуникация технологиялари ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш орқали 2030 йилга қадар инновацион тараққий этган етакчи давлатлар қаторидан ўрин эгаллаш устувор вазифа сифатида белгиланган.

Сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишни кенгайтириш, рақамли маълумотларни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида ҳозирда юртимизда ушбу соҳада малакали кадрларни тайёрлаш, мазкур йўналишдаги илмий-лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Сунъий интеллект соҳасида илмий-техник тадқиқотлар ва инновацион ишланмаларни қўллаб-қувватлаш доирасида умумий қиймати 15,1 млрд. сўм бўлган, давомийлиги 2021 – 2024 йилларга мўлжалланган 9 та лойиҳа амалга оширилмоқда.<sup>9</sup>

Ҳозирда СИ ҳаётимизнинг кўплаб соҳаларида қўлланилмоқда, жумладан интернет, тиббиёт, бизнес, транспорт ва х.к.

<sup>8</sup> В.Ш. Рубашкин. Представление и анализ смысла в интеллектуальных информационных системах. – М.: Наука, 1989

<sup>9</sup> В.Ш. Рубашкин. Представление и анализ смысла в интеллектуальных информационных системах. – М.: Наука, 1989

СИ бизнесда ҳам фаол қўлланилмоқда. СИ ни энг кўп қўллаётган катта савдо тармоғига эга бўлган Walmart компанияси хисобланади.

Нейротармоқлар ёрдамида тўлов тизимини автоматлаштиришга, товарларни ҳисобга олишни тезлатишга ва дронлар билан етказиб беришни таъминлашга эришилмоқда. 2017 йилдан бошлаб тармоқ дўконларида Bossa Nova роботлари ишлай бошлади. Улар бир кунда уч марта супермаркетнинг ҳамма бўлимларини текшириб чиқади, яъни дўкон тахталарида ассортимент бор-йўқлигини, нархлар тўғри белгиланганми йўқми ва х. Маълумотларни йиғиш ва таҳлил қилиш махсус сунъий интеллект элементлари билан ишлаб чиқилган дастур таъминоти асосида амалга оширилади. Сўнгра маълумотлар логистика бўлимига берилади.

СИ рентген тасвирларида, МРТ да, КТда патологияни таниб олишга ёрдам беради. СИ ёрдамида шифокорлар ўпка шамоллашини билиб олишлари мумкин. СИ бўйича изланишлар натижасини ўрганишга бир неча секундлар кетса, шифокорларга 20-30 минут вақт кетиши мумкин.(2-расм)



## 2-Расм. Ўзбекистон даволаш-профилактика муассасаларида сунъий интеллект<sup>10</sup>

СИ ни харбий-саноат соҳасида ҳам кенг қўлланилмоқда. Маълум бўлдики, 2018 йилда АҚШнинг армиясида тепловизор ёрдамида қоронғиликда инсонларнинг юзини таниб олувчи тизим ишлаб чиқилган. Бунинг энг асосий вазифаси харбий ҳаракатлар олиб бораётган локациядаги душман бошлиқларини билиб олиш хисобланади. ALPHA номидаги СИ фаол тестдан ўтказилмоқда. У учувчисиз қирувчи самолётларни бошқаришда ва харбий ҳаво ҳаракатларида қатнашишга мўлжалланган. ALPHA ни тестдан ўтказиш шуни кўрсатдики, компьютер бир вақтнинг ўзида тўртта қирувчи самолётни бошқариб иккита инсон-душманни ютиб чиққан.

<sup>10</sup> [https://www.google.com/search?sca\\_esv=17147adff2573a58&sca\\_upv](https://www.google.com/search?sca_esv=17147adff2573a58&sca_upv)

СИ хавфсизлик тизимларида, биринчи ўринда инсонларни таниб олиш ва уларни идентификация қилишда ҳам кенг фойдаланилмоқда. Бундан ташқари бундай “ақлли” тизимлар хавфли жисмлар ва предметларни аниқлаш мақсадида қўлланилмоқда, киберхавфсизликни таъминлашда ҳам ёрдам бермоқда. СИ тахдидлар тўғрисидаги маълумотларни таҳлил қилиш асосида хавфсизлик хизматлари вақтини тежайди ва тезликда қарор қабул қилиш имкониятларини кенгайтиради.<sup>11</sup>

СИ ни қўллаш ҳисобига таълим тизими келажакда икки йўналишда ривожланади. Биринчиси – мослашувчанлик. Унинг асосий вазифаси ўқувчиларда турлича ўзлаштириш муаммоларини ечиш ҳисобланади. СИ таълим оловчиларнинг натижаларини таҳлил қилади ва у асосида ўзлаштириш даражаси ҳақида ўқитувчиларни хабардор қилиб, курсларни тартибини мослаштириб беради.

Иккинчи йўналиш – прокторинг. Бунинг мақсади тест ва имтихонлардан ўтиш пайтида ўқувчиларни назорат қилишни таъминлаш ҳисобланади. Бу тизим ўқувчиларни бир-бири билан гаплашиши, шпаргалкалардан фойдаланишини назорат қилади. Қоида бузилиши бўладиган бўлса СИ дархол прокторга, яъни тест ўтказиш жараёнини мониторингига жавоб берувчи мутахассисга хабар беради.

Суд тизимида Хитой Республикаси СИ дан биринчилардан бўлиб фойдалана бошлади. Нейротармоқлар ҳозирча ёрдамчи сифатида ишлатилади. Улар давлат базаларидаги маълумотларнинг катта массивини таҳлил қилади, инсонлар тўғрисидаги тавсифномаларни эътиборга олади, ундан кейин уларнинг айбдор ёки айбдор эмаслиги ҳақида қарор чиқаради. Ҳозирги кунда СИ базасида ишловчи компьютерларнинг кўпчилиги статистик маълумотлар асосида келажакда инсонлар томонидан қоида бузишлар ҳамда жиноятларни прогноз қилиш қобилиятига эга. Шу орқали жиноятлар умумий даражасини камайтириш режалаштирилади.

Сунъий интеллект қачон мактаб тизимига жорий этилади.<sup>12</sup>

2021 йилда Россия Таълим вазирлиги мактабларда “Сунъий интеллект” ўқув модулларини синовдан ўтказишни бошлайди. 2024 йилга келиб, одатдаги ўқув дастури доирасидаги барча мактабларнинг ярмида сунъий интеллект дарслари ўқитилади.<sup>13</sup>

Сунъий интеллект дарслари Корея мактабларида 2021 йил иккинчи семестридан бошлаб жорий этилади. Келгуси йил мавзулар мактаб ўқув дастурига киритилгач, ўрта

<sup>11</sup> С.С.Гулямов, Р.Х.Эргашев, С.Н.Хамраева. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2020 йил

<sup>12</sup> С.С.Гулямов, Р.Х.Эргашев, С.Н.Хамраева. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2020 йил

<sup>13</sup> Бессмертный И.А. Искусственный интеллект – СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. –132 с.

мактабнинг 2 ва 3-синфлари ўқувчилари Сунъий интеллект курсига кириш ёки Сунъий интеллект математикаси сабоқларини олишлари мумкин.

Хитой технология компаниялари келажакда кўпроқ истеъдодларни тарбиялаш ниятида робототехника ва сунъий интеллект бўйича ўқув дастурларини тақдим этиш борасида мактаблар билан ҳамкорлик қилмоқда.

Ўзбекистонда янги технологиялар, жумладан, сунъий интеллектнинг ижтимоий ҳимоя дастурлари ва бошқа соҳаларга кенг жорий қилиниши давлат ва хусусий секторда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишни рағбатлантириб, мамлакатда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда ҳар бир соҳага инновацияларни киритиш имкониятларини оширади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 17 февраль “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чоратadbирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарори.
2. С.С.Гулямов, Р.Х.Эргашев, С.Н.Хамраева. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. 2020 йил
3. Н. Нильсон. Принципы искусственного интеллекта. – М.: Радио и связь, 1985.
4. В.Ш. Рубашкин. Представление и анализ смысла в интеллектуальных информационных системах. – М.: Наука, 1989.
5. Бессмертный И.А. Искусственный интеллект – СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. –132 с.
6. Тараққиёт стратегияси маркази. <https://strategy.uz>

## ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ВА ЮРИДИК ТАБИАТИ

Мухиддин Абдуллаевич Қурбонов

Тошкент давлат Иқтисодиёт Университети “Солиқ ва солиққа тортиш” кафедраси доценти  
(PhD)

### АННОТАЦИЯ

ушбу мақолада хуфиёна иқтисодиёт тушунчаси ва кўринишлари, шунингдек, хуфиёна иқтисодиётга қарши курашишнинг умумий тавсифи ва юридик табиати ҳамда хуфиёна иқтисодиётнинг салмоғини камайтириш йўлидаги қабул қилинаётган норматив ҳужжатлар ва ислоҳатлар ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** хуфиёна иқтисодиёт, норасмий иқтисодиёт ва яширин иқтисодиёт, жиноий иқтисодий фаолият, наркобизнес, мансабни суиистеъмол қилиш ва коррупция.

### АННОТАЦИЯ

в данной статье говорится о понятии и проявлениях теневой экономики, а также общей характеристике и правовой природе борьбы с теневой экономикой, а также принятых нормативных документах и реформах, направленных на снижение веса теневой экономики.

**Ключевые слова:** подпольная экономика, неформальная экономика и теневая экономика, криминальная экономическая деятельность, наркобизнес, злоупотребление служебным положением и коррупция.

### ABSTRACT

this article talks about the concept and manifestations of the secret economy, as well as the general description and legal nature of the fight against the secret economy, as well as the adopted regulatory documents and reforms aimed at reducing the weight of the secret economy.

**Keywords:** secret economy, informal economy and underground economy, criminal economic activity, drug business, abuse of office and corruption.

### КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида “Ислохотларимизга жиддий тўсқинлик

килаётган “яширин иқтисодиёт”га барҳам берилмас экан, соғлом рақобат ҳам, қулай инвестиция муҳити ҳам шаклланмайди. Вазирлар Маҳкамаси икки ой муддатда, хорижий мутахассисларни жалб этган ҳолда, “яширин иқтисодиёт”нинг вужудга келиш омилларини чуқур таҳлил қилиб, унга қарши курашиш дастурини тасдиқласин”<sup>1</sup>, -деб таъкидлаши, хуфиёна иқтисодиёт нафақат тадбиркорлик соҳасида, мамлакатимизга кириб келаётган инвестицияга, соғлом рақобатга жиддий хавф солаётгангини кўришимиз мумкин.

Хуфиёна иқтисодиётга қарши курашиш самарадорлигини ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамасига икки ой муддатда хорижий мутахассислар билан бирга яширин иқтисодиётни келиб чиқишига сабаб бўлаётган омилларни ўрганиб чиқиб, хуфиёна иқтисодиётга қарши курашиш дастурини ишлаб чиқди.

Мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда хуфиёна иқтисодиётга қарши курашиш муҳим урин тутади. Хуфиёна иқтисодиётнинг салмоғини камайтириш йўлида хуфиёна ва яширин иқтисодиёт шаклларини ва кўринишларини аниқлаш, бу соҳада содир этилаётган жиноят ёки қилмишларнинг усуллари, объектив томонларини ҳамда легаллаштириш йўналишларини тадқиқ этиш энг аввало, қилиниши керак бўлган ишлардан.

### **АСОСИЙ ҚИСМ**

Криминал элементларнинг ишлаб чиқариш ва молиявий муассасаларга, соҳаларга, давлат ҳокимияти ва бошқарув органларига кириб бориши оқибатида миллий бойлик, давлат бюджети даромадларини тақсимлаш ва қайта тақсимлашда иштирокининг кенгайиб бориши миллий ва шу жумладан халқаро иқтисодий хавфсизликка жиддий хавф солади.

Хуфиёна иқтисодиёт тушунчасига ўтган асрнинг 30-йилларидан бошлаб таъриф берилган деб ҳисоблашса, бу соҳани илмий жиҳатдан тадқиқ қилиш эса йигирманчи асрнинг 70-йилларидан бошланганлигини айтишади.


Инглиз социологи К.Харт биринчилардан бўлиб хуфиёна иқтисодиёт тушунчасига таъриф берган. У “учинчи дунё” мамлакатларида кўплаб шахарликларнинг расмий иқтисодиётга алоқадор эмаслигини аниқлади. У норасмий иқтисодиёт атамасини илмий муомалага киритди. Даромад олишнинг формал ва ноформал шакллари ўртасидаги фарк

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь

иш ҳақи ва ўзини ўзи иш билан банд қилиш асосида топилган даромад ўртасидаги фарк сифатида изоҳланди.<sup>2</sup>

Яна олимлардан бири Э. Фейг хуфиёна иқтисодиёт кўлами 70-йилларнинг охирида АҚШда расман ЯИМ нинг учдан бир қисмини ташкил этишини баҳолади. Бу баҳо АҚШ Конгрессининг Иқтисодий кўмитасида махсус муҳокама қилинди.<sup>3</sup>

Файгнинг фикрига кўра, ҳар бир алоҳида хуфиёна иқтисодиёт турининг тафсифининг вакиллари бузадиган институционал қоидалар тўплами билан белгиланади, яъни уларнинг фаолияти қоидалар ва нормаларнинг ўрнатилган тизими доирасидан ташқарига чиқади ёки уни четлаб ўтади ва ўз навбатида, ўлчанмайди ва ижтимоий жиҳатдан ҳисобга олинмайди.<sup>4</sup>



### 1-Расм. Хуфиёна иқтисодиёт (яширин иқтисодиёт) -жиной иқтисодиётдир<sup>5</sup>

Юқоридаги социолог олимлар К.Харт ва Э. Фейглар биргаликда ҳам, норасмий иқтисодиёт тушунчасини илмий муомалага киритишдан ташқари, уларнинг умумий қарашларида ҳам ривожланган давлатлар жумладан, АҚШда 70-йилларнинг охирида ЯИМ нинг учдан бир қисмини ташкил этишини ҳамда “учинчи дунё” мамлакатларида миқийёсида таҳлил этишган. К.Харт хуфиёна иқтисодиётни формал ва ноформал даромад олиш шакллари билан фарқлаб берган бўлса, Э. Фейг эса хуфиёна иқтисодиёт турларининг тафсифи ва норасмий иқтисодиёт соҳасидаги қилмишлар содир этилишида институционал қоидалар ва нормалар бўзилишини ҳамда хуфиёна иқтисодиёт ижтимоий жиҳатдан ҳисобга олинмаслигини ва ўлчанмаслигини келтириб ўтган.

<sup>2</sup> Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana //Journal of Modern African Studies.1973.Vol. 11. №1. P.61-90).

<sup>3</sup> Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. – М.: РГГУ, 2000. -147 с.

<sup>4</sup> Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. – М.: РГГУ, 2000. -147 с.

<sup>5</sup> [https://www.google.com/search?sca\\_esv=17147adff2573a58&sca\\_upv](https://www.google.com/search?sca_esv=17147adff2573a58&sca_upv)

Хуфиёна иқтисодиёт тушунчасига юртимиз олимлари ҳам турли хил таърифлар беришган. Т. Ашубеков "Яширин иқтисодиёт — иштирокчилар томонидан ошкора олиб борилмайдиган, давлат ва жамият томонидан назорат қилинмайдиган, солиқлар тўланмайдиган, расмий давлат статистикасида қайд этилмайдиган иқтисодий жараёнлар, иқтисодий фаолият турлари бўлиб ҳисобланади"<sup>6</sup> деб ўз илмий ишларида келтириб ўтган.

Яна бир юридик фанлар номзоди С.С.Ниёзова хуфиёна иқтисодиёт таъриф берар экан, "Яширин иқтисодиёт ошкора пайқаб бўлмайдиган товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш, истеъмол жараёнлари иқтисодий муносабатлар бўлиб, унинг негизда айрим кишилар ёки гуруҳ манфаатлари ётади".<sup>7</sup>

**Бизнинг фикримизча яширин иқтисодиёт**- расмий ҳисобга олинмайдиган, давлатнинг ҳуқуқий мийёрларига амал қилиб борилмайдиган, давлат бюрократиясидан безиган, ўз фаолияти ошкора олиб борилмайдиган, ҳукумат томонидан бошқарув шакиллари тизимли шакиллантирилмаган, бюрократ раҳбарлар домига қолиб кетаётган, давлат ва жамият манфаатларига зарар етказадиган ҳамда солиққа тортилмайдиган иқтисодий муносабатлар ҳисобланади. Шу билан бирга паралел иқтисодиётни ҳам эсдан чиқармаслигимиз лозим, акс холда талаб ва таклиф ўртасидаги мувозанат бузилишига ҳам олиб келиши мумкин албатта.

Хуфиёна иқтисодиётда кўплаб ноқонуний иқтисодий фаолият турлари мавжуд: **"ер ости иқтисодиёти"**, **"норасмий иқтисодиёт"**, **"иккинчи иқтисодиёт"**, **"яширин иқтисодиёт"**, **"паралел иқтисодиёт"** ва ҳоказо. Ушбу номларнинг "яширин иқтисодиёт" деб номланган тури рус адабиётларида кенг қўлланилганлиги туфайли омма орасида ҳамшундай ном билан "машхур" бўлиб қолмоқда, шу сабабли ҳам "яширин иқтисодиёт" атамаси "хуфиёна иқтисодиёт" атамасидан кўра илмий ишларда кўпроқ ишлатилади. омма орасида ҳам шундай ном билан "машхур" бўлиб қолмоқда.

Шу ўринда юқоридаги атамаларга қисқача бир-бирдан фарқига тўхталадиган бўлсак, юқорида ҳам кўрдик, **яширин иқтисодиёт** – аниқлаб бўлмайдиган, яширинча олиб бориладиган давлат қонунларидан ташқарида шаклланаётган иқтисодий фаолият.

Иқтисодий адабиётларда хуфиёна иқтисодиётга турли таърифлар берилган:

1. Хуфиёна иқтисодиёт қонун асосида ман қилинган фаолият турлари деб таърифланади.

<sup>6</sup> Ашубеков Т. Борьба с правонарушениями в сфере экономики // Законность. - 2000. - № 9. – С.9-13

<sup>7</sup> С.С.Ниёзова Ўзгалар мулкни иштирокчиликда талон-тарож қилганлик учун жиноий жавобгарлик муаммолари: ю.ф.н.илмий даражасини олиш учун диссертация. - Т. -85 бет.



2. Хуфиёна иқтисодиёт иқтисодий фаолиятнинг кузатилмаган ва яширин фаолият тури.

3. Хуфиёна иқтисодиёт расмий статистикада у ёки бу сабабларга кўра ҳисобга олинмаган ҳар қандай иқтисодий фаолият бўлиб, унда ишлаб чиқарилган маҳсулот ва хизматлар ялпи ички маҳсулот таркибига киритилмайди ҳамда солиққа тортишдан четда қолади<sup>2</sup>.

**Хуфиёна иқтисодиёт** - яширин иқтисодиётнинг секторларидан бири бўлиб, олинаётган даромадлар яширин бўлиб, давлат ёки жамият томонидан тартибга солинмайдиган ҳамда солиққа тортилмайдиган иқтисодий фаолият тури.

**Норасмий иқтисодиёт** - давлатнинг назорат қилиш механизмлари томонидан ишлаб чиқилади ва тартибга солинади ҳамда солиққа тортилиши назарда тутилганлиги билан фарқланади лекин ушбу механизмлардан қочган ҳолда фаолият юритувчиларнинг норасмий секторидир.

Хуфиёна иқтисодиёт деярли барча давлатларда иқтисодиётнинг ажралмас бир қисми бўлиб келмоқда ва ушбу фаолият ҳар бир давлатда ўзининг салмоғи, тури ва шакллари билан фарқ қилқади. Яширин иқтисодиётнинг мақсади, фаолияти ва иқтисодий-ижтимоий оқибатларига кўра бир неча турларга бўлинади:

1) **жиноий иқтисодий фаолият** – бу мутлақо ман этилган, қонун йўли билан таъқиб этиладиган ишлар билан шуғулланиш, наркобизнес, порнобизнес, қурол бизнеси ва ҳ.к.; (ғайриқонуний, ғайрииқтисодий усуллар билан даромадларни қайта тақсимлаб ўзлаштириб олиш, ўғирлик, босқинчилик, рекет, порахўрлик ва б. )

2) **иккиламчи иқтисодиёт** — кишиларга зарар келтирмайдиган, улар учун наф берадиган, лекин расман рухсат этилмаган ва давлат рўйхатидан ўтмаган иқтисодий фаолият. Уларга яширин тадбиркорлик, 1—2 ва 5—10 киши банд бўлган яширин кичик корхоналар фаолиятини киритишимиз мумкин.

Яширин тадбиркорлик хизмати кўрсатиш, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, савдо, кийим-кечак ишлаб, саноат ишлаб чиқаришда кенг тарқалган;

4) расман рухсат этилган фаолият билан бирга қўшимча равишда яширин ишлаб чиқаришга қўл уриш, очиқ ишлайдиган корхоналарда қўшимча равишда ҳисобга кирмаган маҳсулот чиқариб, уни яширин сотиш;

5) мансабни суистеъмол қилиш ва коррупцияга асосланган иқтисодий хатти-ҳаракатлар. Булар жумласига давлат идораларидаги порахўрлик, яширин лоббизм, мансабидан фойдаланиб субсидиялар олишни, давлат мулкани ўзлаштириш, талон тарож қилинишини киритиш мумкин;

б) қалбакилаштирилган иқтисодий фаолият, бу иқтисодиёт давлат секторига хос бўлиб, давлатни алдашга қаратилади. Бунинг энг яққол намунаси давлат секторидagi кўшиб ёзишлар, қилинмаган ишлар учун давлатдан ҳақ олишни киритиш мумкин.<sup>8</sup>

Юқорида келтирилган яширин иқтисодиёт турлари давлатнинг иқтисодиётини орқага тортишдан ташқари жамиятдаги ижтимоий соҳаларга ҳам ўз салбий таъсирини ўтказмасдан қолмаяпти албатта.



## 2-Расм. Хуфийна иқтисодиёт секторининг мавжудлиги мамлакат иқтисодий хавфсизлигига жиддий таҳдидир<sup>9</sup>

Хуфийна иқтисодиёт секторининг мавжудлиги мамлакат иқтисодий хавфсизлигига жиддий таҳдид солади. Наркобизнес хуфийна иқтисодиётнинг энг хавфли фаолият соҳаси ҳисобланади. Наркотик моддалар ишлаб чиқариш учун жалб этилаётган меҳнат, ер, капитал ресурсларининг арзон, улгуржи нархлари ҳам паст эканини эътиборга олиш даркор.

Агар Покистонда 1 кг героиннинг улгуржи нархи 1500 АҚШ доллар бўлса, Германияда 10000, Англияда 40000, АҚШда 120000 долларга сотилади. Хатарли жиҳати шундаки, наркобизнес ўзининг нопок пуллари қонуний фаолият соҳаларига киритишга интилади.<sup>10</sup>

Шунингдек, қурол савдоси хуфийна иқтисодиётнинг ўта хатарли соҳаси ҳисобланади. Хуфийна иқтисодиёт иқтисодий қонунбузарликлар, террористик жиноятлар билан ҳам қўшилиб кетмоқда. Хуфийна иқтисодиётга қарши курашиш учун корхоналар

<sup>8</sup> С.С.Ниёзова Ўзгалар мулкни иштирокчиликда талон-тарож қилганлик учун жиноий жавобгарлик муаммолари: ю.ф.н.илмий даражасини олиш учун диссертация. - Т. -85 бет.

<sup>9</sup> [https://www.google.com/search?sca\\_esv=17147adff2573a58&sca\\_upv](https://www.google.com/search?sca_esv=17147adff2573a58&sca_upv)

<sup>10</sup> Директива Европейских Сообществ (СЕС) от 10 июня 1991 г. О предотвращении использования финансовой системы для отмывания денег (91/308/ЕЕС) -52р.

хўжалик молиявий фаолияти, жисмоний шахсларнинг даромад олиши ва харажатлари тўғрисидаги ҳаққоний ахборотларни тўплаш, таҳлил қилиш асосида иқтисодий-ижтимоий жараёнларни кенг қамровли назорат қилиш тизимини шакллантириш лозим.

Бунда давлат бошқа органлар, нодавлат ташкилотлар, уюшмалар билан ўзаро ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиши лозим.

### ХУЛОСА

Хуфиёна иқтисодиётга қарши курашишда 2020 йил 20 июнда қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида “яширин иқтисодиёт” улушини қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 394-сонли қарори,<sup>11</sup> 2020 йил 31 августда қабул қилинган “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ– 6098-сонли,<sup>12</sup> 2022 йил 28 январда қабул қилинган “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–60-сонли фармонлари қабул қилинган бўлиб уларни ижросини таъминлаш доирасида:<sup>13</sup>

Белгиланган вазифаларни амалга ошириш ва шунингдек, хуфиёна иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларни содир этилишига сабаблар, хуфиёна иқтисодиёт соҳасидаги камчиликлар ва муоммоларга ечим бўла оладиган таклифларни доимий ва тизимли равишда киритиб бориш;

Иқтисодиёт секторидаги давлат назоратининг очик ва шаффофлигини таъминлаш, давлат активларини ўзлаштирилишга, яширин иқтисодий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга ва хуфиёна иқтисодиётдаги коррупцион ҳолатларга қарши курашашни такомиллаштириш ва хуфиёна иқтисодиёт даражасини камайтириш мақсадида жамоатчилик назоратини йўлга қўйиш ҳамда комплекс тадбирлар ишлаб чиқиш муайян даражада хизмат қилади;

Хуфиёна иқтисодиётга қарши курашиш учун корхоналар хўжалик молиявий фаолияти, жисмоний шахсларнинг даромад олиши ва харажатлари тўғрисидаги ҳаққоний ахборотларни тўплаш, таҳлил қилиш асосида иқтисодий-ижтимоий жараёнларни кенг қамровли назорат қилиш тизимини шакллантириш лозим;

<sup>11</sup> 2020 йил 20 июнда қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида “яширин иқтисодиёт” улушини қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 394-сонли Қарори

<sup>12</sup> 2020 йил 31 августда қабул қилинган “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ– 6098-сонли

<sup>13</sup> 2022 йил 28 январда қабул қилинган “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–60-сонли Фармон

Қисқача қилиб айтганда молиявий технологиялардан кенг фойдаланилган холда, давлатда иқтисодий бошқарувини инсон омилисиз, манфаатдор хокимият орган (сиёсий партиялар ва б.)лар таъсирсиз тизимли равишда ташкил этиш шарт ва мажбурмиз;

Ўз мансабини суистеъмол қилиш ва коррупцияга асосланган иқтисодий хатти-харакатлар, жумладан давлат идораларидаги порахўрлик, яширин лоббизм, мансабидан фойдаланиб субсидиялар олишни, давлат мулкани ўзлаштириш, талон тарож қилинишини олдини олмас эканмиз барча харакатларимиз бесамар бўлиб қолаверади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.
2. Hart K. Informal Urban Income Opportunities and Urban Employment in Ghana //Journal of Modern African Studies.1973.Vol. 11. №1. P.61-90).
3. Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: нео-институциональный подход. –М.: РГГУ, 2000. -147 с.
4. Ашубеков Т. Борьба с правонарушениями в сфере экономики // Законность. - 2000. - № 9. – С.9-13
5. С.С.Ниёзова Ўзгалар мулкани иштирокчиликда талон-тарож қилганлик учун жиноий жавобгарлик муаммолари: ю.ф.н.илмий даражасини олиш учун диссертация. - Т. -85 бет.
6. Директива Европейских Сообществ (СЕС) от 10 июня 1991 г. О предотвращении использования финансовой системы для отмывания денег (91/308/ЕЕС) -52р.
7. Болотский Б.С. «Теневые» параметры реформируемой экономики // Рос. экон. журн. – 1996. -108 стр.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA IBORALARNING O'RNI

**Jasmina Murotova**

Jizzax Davlat Pedagogika Universitet Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili hamda oqish, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida iboralardan samarali foydalanish natijasida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishning metodologik va ilmiy asoslari masalalari yoritilgan.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены вопросы методологических и научных основ развития устной и письменной речи учащихся в результате эффективного использования выражений на занятиях родным языком и чтением, родного языка и читательской грамотности в начальных классах.

### ABSTRACT

This article covers the issues of methodological and scientific foundations of the development of students' oral and written speech as a result of the effective use of expressions in the classes of native language and reading, native language and reading literacy in primary grades.

Boshlang'ich sinflarning o'qish kitobi hatto ona tili kitoblarini kuzatganimizda iboralarga oid ma'lumotlar berilmagan. Lekin boshlang'ich sinf o'qish kitoblarining aksariyatidagi matnlarda iboralar berilgani bu boshlang'ich sinflarda iboralar mavzusi dolzarb ekanligidan darak beradi. Xususan, boshlang'ich sinf o'qish kitobida iboralar juda ko'plab matnlarda qo'llanilgan. Bu iboralar to'g'risida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lumot berishni talab etadi.

2010 yilda qabul qilingan “Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartida va o'quv dasturida boshlang'ich sinf o'qish kitobi fanidan “matndagi so'z, ibora, gaplarning ma'nolarini izohlay olish” deb uqtirilgan. O'quv dasturining mazmunida o'qish ko'nikmasi bo'limida esa “so'zlarning butunicha sidirg'a o'qish; matn mazmunini ongli o'zlashtirish shakldagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashda o'zaro bog'lanishi, tasviriy vositalarni matnda qo'llanishini bilish, maqol

va iboralardan so'zlarni to'g'ri tanlay olish, mavzuni adabiy tilda talaffuz etishga o'rgatish deb belgilab qo'yilgan.

Matn ustida ishlash bo'limida “Asarda voqealarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda asta-sekin rivojlanib borishi, matn qismlarining mazmunan bog'liqligini mustaqil belgilay olish, asar tahlilida matndan misollar tanlay olish, asar qaxramonlarining xatti-xarakterini baholash, ularga o'z munosabatlarini bildirish, murakkab bo'lmagan asardan asosiy fikr (g'oya)ni ajrata olish, o'qishga bog'liq xolda nutq qo'nikmalarining shakllanishini ta'minlash, badiiy matndagi so'z ma'nolarini aniqlash, tanlab o'qish matndagi asar qaxramonlari, tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z va iboralarni topa olish, nasriy asar mazmunini to'liq, qisqartirib, shaxsni o'zgartirib hikoya qilish, ijodiy hikoyalar tuzish va ularga mos sarlavha topib qo'yish, o'qigan asarlari muallifi va nomlarini ayta olish, badiiy asarlarni bir-biri bilan taqqoslash, muayyan xulosalar chiqarish, darsliklardagi savol va topshiriqlar ustida mustaqil ishlash, mundarijadan foydalanish, rasmlar asosida og'zaki va yozma hikoyalar tuzish” deb belgilab qo'yilgan.

Bundan shuni bilish mumkinki, 4 sinf o'qish fanidan kitob bilan ishlash, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish tez, to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga erishish, o'zbek va xorijiy bolalar yozuvchilari asarlarini o'qish, badiiy asarlarni sharhi, ifodali o'qish. Asar so'z boyligini oshira borish va nutqda faol qo'llash, o'qigan asarlar yuzasidan savol topshiriqlar tuzish, badiiy asarlarni o'zaro qiyoslab, tegishli xulosa chiqarish bilan birga izoxlash, iboralar ustida ishlashga xam katta urg'u berilgan. Yana shuningdek, “Mazkur standart mezonlarning o'zaro uzviy bog'liqligi (integrasiyasi), o'qish, ona tili ta'limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil xisoblanadi”, -deb belgilab qo'yilgan. Bunda o'qish kitobidagi matnlardagi iboralarni ona tilidan o'tilgan iboralar to'g'risidagi ma'lumot orqali iboralar ustida ishlash mumkin.

O'quvchilar lug'at boyligining muhim qismi ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora odatda bir so'zga teng keladigan so'zlar qo'shilmasi bo'lib, u nutq mazmunini boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan muxim vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so'zlar o'rnida iboralarni almashtirish yoki aksincha so'zlar o'rnida iboralarni qo'llash, iboralarning ma'nosini sharhlash, berilgan iboralarga yangi ma'noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma'noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

DTS talablari doirasida o'quvchilarning nutqini o'stirish, imlo savodxonligini o'stirish, talaffuz me'yorlarini shakllantirish va rivojlantirish, ifodali o'qish uchun zaruriy bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish – ta'lim prinsiplariga qat'iy amal qilish, dars metodlari, vositalari va usullarini to'g'ri belgilash, ta'lim tarbiya va rivojlanishini uyg'unligini ta'minlash,

qayta xotirlash, qisman ijodiy va to'liq ijodiy topshiriqlar o'rtasidagi mutanosiblikni tanlash, ijodiy fikrlashga undaydigan o'quv topshiriqlariga keng o'rin ajratish, bilim ko'nikma va malaka hosil qilganda o'quvchilar yoshi, o'qish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, bolaning savodxonligi, yozma nutq belgilarini talaffuzda almashtirish ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunday miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni bir daqiqada berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. O'quvchi sinfdan sinfga ko'chgan sari so'z miqdori ham murakkablik darajasi xam ortib boradi.

4-sinfda o'qish kitobi darsligi matnlardagi iboralarni o'rgatishda baxs munozara darslari ancha samaralidir. O'qish darslarining samaradorligi ko'p jixatdan o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi bilan bog'liq. Ijodiy fikrlashga o'rgatishda baxs-munozara muxim ahamiyatga ega. Bu narsalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'rganiladigan material o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinadi, muhokamaga tashlanayotgan masala xususida xar bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr-muloxazalarini bildiradi. Baxs- munozara uchun tashlanadigan savollar o'quvchi tomonidan puxta o'ylangan bo'lishi lozim. Masalan: iboralar yuzasidan baxs munozaraga quyidagi muammo o'rta tashlanishi mumkin.

1. Kim iboralar biladi?
2. Matndagi iboraning ma'nosini izohlang.
3. Shu ibora orqali ko'proq gap tuzing va hokazo....

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib, boyitib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli qoydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon ayniqsa bolalik davrida samarali tus oladi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa aralashuviga ehtiyoj sezadi, o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zaruriyat seza boshlaydi.

O'qish darsi ona tili darsidek, o'quvchi nutqini yaxshilaydi, boyitadi, unga badiiy bo'yoq beradi, nafosat bag'ishlaydi. Masalan 4-sinf o'qish kitobidagi matnlarni tez, to'g'ri, ravon va ifodali o'qish, badiiy asarlarning sharhi, ifodali o'qish, so'z boyligini oshira borish va nutqida faol qo'llash, o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, matndagi iboralarni nutqda to'g'ri qo'llash.

Qanday nutqni yaxshi nutq deb atash mumkin? O'quvchi nutqiga qanday talablar qo'yiladi? Bu savollarga javob topmay turib bolalar nutqining boshqa muammolari haqida fikr yuritish qiyin. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushiniladi.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Bu nutqning eng zaruriy tarkibiy qismlaridan biridir. Xalqimiz bunga juda katta e'tibor bergan. Shuning uchun “So'zing aytgin uqqancha”-kabi maqollarda ham nutqning tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta'kidlangan.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab mazmundorlikdir. Shuni unitmaslik lozimki, nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo'ladi. O'quvchi faqat bilgan narsalarini, o'zi xabardor bo'lgan voqea hodisalarini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar, kuzatish yoki taassurotlar, his tuyg'ular asosida bidirilgan fikrgina o'zgalarga diqqatini o'ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na o'quvchining o'ziga, na o'zgalarga yoqadi. Ko'p hollarda o'quvchiga noma'lum narsalar voqea hodisalar haqida gapirish yoki yozish vazifasi topshiriladi. Shubxasiz, bu hol fikriy sayozlikka, mavzuning yoritilmay qolishiga sabab bo'ladi. Shu uchun o'quvchiga o'zi o'qigan, kuzatgan, bo'lgan narsalar yoki voqealar, hodisalar xususida yozish vazifasi topshirilmog'i lozim. Suhbat, hikoya, insho uchun o'qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealariga boy material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri fikrning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asolangan bo'lsagina ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera bilish, shu yo'l bilan nutqini muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon qilayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olish, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Nutq – mantiqiy fikrlash mahsulidir. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan. Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va bir- biridan farqi aniqlanib olinadi, shu asosda hukm va xulosalar chiqariladi. O'quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib mantiqan to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqan to'g'riligi esa avvalo fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog'langan bo'lishi, fikr yuritilayotgan mavzudan chetga chiqmaslik mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, mujmal jumlar bo'lmasligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishi demakdir. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barang bo'lishidir. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari, ma'nosi, u yondosh yoki qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, shuningdek nutqning badiiy qiymatini oshiruvchi vositalar maqol va materiallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning maqol va aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlaridan,



badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va frazeologik iboralardan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri uning aniq bo'lishidir. Nutqning aniqligi bu farqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo'lgan belgilarini aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so'z, so'z birikmalari, iboralar va gaplar tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'liq.

Ohangdorlik ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositalaridan biridir. Shuning uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintegmalarga bo'ladi. Mantiqiy urg'uni o'rinli qo'llaydi. Shuning uchun ifodali o'qish malakalari faqat adabiyot darsliklarining emas, balki ona tili, o'qish mashg'ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim. Nutqning grammatik qurilishi ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, ibora va gaplarni bir-biriga bog'lashi kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llashi, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq avvalo, tushunarli bo'ladi. Nutqning tushunarli bo'lishi bir tomondan fikrni lo'nda, aniq bayon qilishi, tushunarli bo'lmagan g'aliz jumalardan saqlanishda namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda ham ravon bayon qilishi o'zgarlar fikrning mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Nutqning sofligi avvalo uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o'quvchilar nutqida xar xil qaytariqlar, ortiqcha jumalar, o'zbek tiliga xos bo'lmagan gap, so'zlar anchagina qismini tashkil etadi, ular nutqining bunday so'zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Biz yuqorida o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablarni sanab o'tdik. Bu talablar o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilishi orqali erishadi. Shuning uchun o'qish kitobi darsliklarida, mashg'ulotlarida faqat bir tomonini kuchaytirib, ikkinchi talabini quyi sinfda, uchinchi keyingi sinfga qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy amal qilinsagina, nutq o'stirish samarali kechadi. O'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllardan to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak o'qish darslari samarali o'tadi. Ko'pchilik

o'quvchi ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri ifodalashda qiynaladilar. O'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini nutqiy jarayonlarda qo'llay olmaydilar. Buning sababini aniqlay olish uchun bolalarning nutqiy taraqqiyotini belgilovchi omillarning, ularning so'z boyligi, so'z va iboradan gapda o'rinli foydalanish, mahorati, gapning grammatik jihatdan to'g'ri qurish malakalari, fikrni turli nutq uslublardan to'g'ri, ixcham, ravon, tushunarli bayon qilish ko'nikmalari kabilarning alohida-alohida tahlil qilishga to'g'ri keladi.

O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir. 4-sinf o'qish darsligida matnlardagi iboralarni o'quvchi qancha ko'p bilsa, ularning ma'nosini tahlil qila olsa, og'zaki va yozma nutqda qanchalik ko'p to'g'ri qo'llay olsa, uning so'z boyligi shunchalik osha boradi. Masalan. 37-betdagi “Odamdan nima qoladi” hikoyasida “qo'ling el aro uzun bo'lsa ham, sen o'z fe'l atvoringni ham afzal qil”-gapidagi “qo'ling uzun bo'lsa” iborasi cheklanmagan imkoniyatga ega bo'lishlik, har ishni bajara olishlik ma'nosini ifodalaydi. Shuni o'quvchi anglagan xolda o'z nutqida to'g'ri qo'llay olishi ham uning so'z boyligini oshira boradi.

Maktabda ona tili og'zaki va yozma nutqni biladigan, til unsurlaridan o'rinli foydalana oladigan, tom ma'nodagi savodli o'quvchilarni tayyorlashni ta'minlaydigan vosita tarzida o'rgatiladi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi.

Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir. Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Biroq iboralarni o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Chunki iboralarning o'zi to'g'risida nazariy ma'lumot berilmaydi, lekin boshlang'ich sinf o'qish va ona tili darsliklari matnlarida juda ko'plab iboralar uchraydi. Albatta, dars berish davomida iboralar ustida maxsus ish olib borilmoqda, yani berilgan lug'atlarda ayrim iboralar izohi berilgan. Ammo bu ish hamma vaqt ham zarur natijalarni bermoqda deb bo'lmaydi. O'rta maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilar yetarli iboraviy birliklar boyligiga ega bo'lmayaptilar. Buning sababi shundaki, iboralarni o'rganish tizimi hali maqsadga bo'ysundirilgan va qat'iy ishlab chiqilgan tizim darajasiga aylangan emas. Iste'molda ko'p qo'llanadigan hamda kam qo'llanadigan, ya'ni nisbatan bir muncha qiyin ma'noli va sodda ko'rinishli iboralarni o'rgatishga bir xil vaqt sarflanishi, iboralarga doir mashqlarni o'rganish xususiyati e'tiborga olinmaganligi iboralarni o'rganishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Nutq ko'rki

— iboralar nafaqat murakkab til hodisasi, balki o'rganilishi va murakkabligi bilan ajralib turadi.

Boshlang'ich sinflar ona tili o'qitish metodikasida fonetika, leksika, grammatikani o'qitish usullari haqida ko'plab ilmiy mulohazalar, tavsiyalar, ko'rsatmalar yaratildi va yaratilmoqda. Ammo iboralarni o'qitishning usullari haqidagi tavsiyalar yetarli emas. Ona tili o'qitish metodikasida iboralar o'quvchilarning nutq malakalarini o'stirish nuqtai nazaridan o'rganiladi. Asosiy e'tibor nutqiy faoliyatni kuchaytirish tizimining noyob boyligi bo'lgan iboralarni mumkin qadar ko'proq nutq iste'moliga kiritish malakasiga qaratiladi.

Iboralar juda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Har bir ibora muayyan hajmdagi ma'noga, shaklga va qo'llanish imkoniyatiga ega va ularning shakli ham o'zgacha. Iboraning shakli deyilganda, uning fonetik, orfografik qurilish tarkibi va grammatik shakllari tushuniladi. Leksemaga qaraganda, iboralar ma'nolarining hajmi, ko'p ma'noliligi bilan farqlanadi. Bu kabi holatlar iboralarni nutqqa olib kirishni qiyinlashtiradi. Aksariyat o'quvchilar mumkin qadar ularni o'z nutqida qo'llamaslikka harakat qiladi. Sabab shundaki, o'quvchilar iboralarning ma'nolarini hamma vaqt ham tushunib yetmaydi, ularning ma'nolarini fahmlay olmaydi. Bu esa iboralarni nutqdan chiqarib tashlash evaziga oddiy, sodda, qashshoq gapirishga undaydi. Shu ma'noda iboralarni o'qitish va o'rganishning optimal metodikasini yaratish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.Toshkent: O'qituvchi.
- 2.Ashrapova T. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi», 1984-yil. 102103-betlar.
3. L. O'rinboyeva (va boshqalar). **2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi** –Toshkent Respublika ta'lim markazi.
4. Umarova M. O'qish kitobi. 3-sinflar uchun darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2013-yil.
- 5.Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4-sinflar uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi.

## THE RELATION OF LANGUAGE WITH CULTURE AND ITS ROLE IN REPRESENTING CULTURE

**Sevara Ravshan qizi Ungalova**

1 st year student of Master’s degree, National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

### ABSTRACT

Language and culture are two important aspects of human life. Language plays a big role in how people communicate with each other, while culture helps to define the values and norms that guide a society. A study of the relationship between language and culture will contribute to our understanding of how two seemingly unrelated elements can work together to create a unique identity for a group. With this knowledge, we will be able to better understand how language affects the way people think about themselves, their communities, and how they interact with other cultures. This article investigates how language affects the way people think about themselves, their communities, and how they interact with other cultures. By investigating this relationship further, we can gain a better understanding of how these three elements work together to create a unique identity for a group. At the same time, this article explores the role of language in capturing and conveying cultural meanings, examining how linguistic structures, vocabulary, and discourse patterns encode and perpetuate cultural knowledge and identity.

**Keywords:** language, culture, linguistics, cognition, cross-cultural communication, linguoculturology, social norms.

### АННОТАЦИЯ

Язык и культура являются двумя важными аспектами человеческой жизни. Язык играет большую роль в том, как люди общаются друг с другом, а культура помогает определить ценности и нормы, которыми руководствуется общество. Изучение взаимосвязи между языком и культурой будет способствовать нашему пониманию того, как два, казалось бы, не связанных друг с другом элемента могут работать вместе, создавая уникальную идентичность группы. Благодаря этим знаниям мы сможем лучше понять, как язык влияет на то, как люди думают о себе, своих сообществах и как они взаимодействуют с другими культурами. В этой статье исследуется, как язык влияет на то, как люди думают о себе, своих сообществах и на то, как они взаимодействуют с другими культурами. Исследуя эту взаимосвязь дальше, мы сможем лучше понять, как эти три элемента работают вместе, создавая уникальную идентичность группы. В то же

время в этой статье исследуется роль языка в улавливании и передаче культурных значений, исследуется, как языковые структуры, словарный запас и модели дискурса кодируют и увековечивают культурные знания и идентичность.

**Ключевые слова:** язык, культура, лингвистика, познание, межкультурная коммуникация, лингвокультурология, социальные нормы.

## INTRODUCTION

Language and culture are two of the most important elements in all societies, because they help define what it means to be a member of that society. Language is a fundamental way that people communicate with one another, while culture is the shared values and traditions of a particular group. Language can be used to express ideas, feelings, and emotions as well as to create new words and phrases. Because language is so central to human life, it's no surprise that many linguists believe that language shapes our thoughts. Culture is defined by shared values, beliefs, traditions, behaviors, activities, institutions, and material things (such as food or art) that are passed down from one generation to another.

Language and culture can be divided into three categories: communication, meaning, and knowledge. Communication refers to how we speak to one another, while meaning refers to what we say and how we say it. Knowledge refers to everything, like art, music, beliefs, values, customs - that help us understand who we are as a society and how we fit into the world around us.

Culture can affect how people think about themselves and the world around them; for example, members of different cultures might have different ideas about what makes someone "normal." In order for an individual or group's actions to be considered culturally appropriate or "normal," they must meet certain standards set by their culture. For example: In Western cultures there is a standard for behavior between friends or romantic partners called "polite behavior." This means that when two people meet each other they should avoid any type of physical contact until they've been formally introduced by someone else, which language is the most important aspect of culture. The language that a person speaks reflects their culture, and vice versa. For example, English-speaking people tend to be more individualistic than those who speak Spanish or French. This is because English was developed in Europe and is therefore more individualistic than Spanish or French. The same goes for other languages, for example, Indian languages are more collectivist than Chinese or Japanese languages. Language also affects society's views on gender roles. In the US, men are typically seen as breadwinners while women are expected to stay at home and take care of children and elderly family members. This idea originated in the

time when most women were considered to be unable to support themselves financially due to their lack of education and skillset. Language has a huge impact on culture by allowing groups of people to communicate with each other effectively so they can work together toward common goals. For example, American English differs from British English because of its use of slang words such as "cool," "awesome," or "cool beans." These terms are used in everyday conversation without any kind of thought about whether or not they make sense for the situation at hand; thus they become part of our culture.

Language can be used to communicate with people from different cultures, but it cannot fully communicate their values or norms. For example, if a person from one culture spoke to someone from another culture about the value of family ties, they would use language such as "family is important" or "family members should help each other." These phrases may not accurately communicate how important family ties are to that particular culture because it does not explain why they hold this value. The same goes for other aspects of their cultural identity - they may not use language to explain why they believe certain things like having respect for elders or being proud of their heritage.

Language plays a crucial role in representing and shaping culture in several significant ways:

1. **Communication and Expression:** Language is the primary medium through which individuals communicate their thoughts, beliefs, values, and experiences. It allows people to express their cultural identity, share stories, traditions, and knowledge, and establish connections with others within their cultural group.

2. **Cultural Identity:** Language is closely tied to cultural identity. The vocabulary, grammar, idioms, and metaphors used in a language often reflect the cultural norms, values, and worldview of a particular group. By speaking a specific language, individuals signal their cultural belonging and heritage.

3. **Preservation of Cultural Heritage:** Language serves as a repository of cultural heritage and traditions. Through language, cultural practices, rituals, folklore, myths, and historical narratives are passed down from generation to generation, preserving the collective memory of a culture.

4. **Worldview and Perception:** Language shapes how individuals perceive and interpret the world around them. Different languages encode unique ways of categorizing and conceptualizing reality, influencing how people think, reason, and interpret their experiences within their cultural context.

5. Social Norms and Values: Language reflects and reinforces social norms, values, and hierarchies within a culture. The use of language can signal social status, gender roles, power dynamics, and other social distinctions, shaping interpersonal relationships and interactions within a society.

6. Cultural Expression: Language is a powerful tool for artistic and cultural expression. Literature, poetry, songs, proverbs, and other forms of creative expression in a language convey cultural themes, aesthetics, emotions, and values, providing insights into the cultural world of a community.

7. Intercultural Communication: Language plays a critical role in facilitating intercultural communication and understanding. Learning another language enables individuals to engage with different cultures, bridge cultural divides, and develop empathy and respect for diverse cultural perspectives.

8. Globalization and Cultural Exchange: In the context of globalization, languages serve as conduits for cultural exchange, hybridity, and the spread of ideas across borders. Multilingualism and cross-cultural communication foster cultural openness, diversity, and the blending of cultural influences.

In essence, language not only serves as a tool for communication but also as a reflection of culture, a vehicle for cultural transmission, and a key component of cultural identity and expression. The interplay between language and culture is intricate and dynamic, shaping individuals' perceptions, behaviors, and relationships within the complex tapestry of human cultural diversity.

## LITERATURE REVIEW

### Definition of culture

There are several theories regarding the relationship between language and culture. Broadly speaking, these theories can be grouped into two categories, namely stating a subordinative relationship, in which language is under the scope of culture, and a coordinative relationship, namely an equal relationship with the same position. Most experts say that culture is the main system, whereas language is only a subsystem, nothing or no one has said otherwise. In regard with the coordinative relationship between language and culture, Masinambouw (1985) states that language and culture are two systems that are "attached" to humans because culture is a system that regulates human interaction, while language or culture is a system that functions as a means of sustainability the facility (cited in Chaer, 1995, p. 217-218). Sapir emphasized the close relationship between language and culture and emphasized that language and culture cannot be separated from one another, so that one cannot understand one without knowing the

other. Whorf, Sapir's student, expanded the idea. He not only said there was an influence, but the relationship between language and culture was determinative. Speakers of different languages, according to Whorf, will view the world differently as long as the language they use is structurally different (Wardhaugh, 1986, p. 212-213). On the Sapir-Whorf hypothesis, there are two statements that need to be considered. First, if speakers of a language have certain words to give objects while speakers of other languages do not have it in the same way, then the speakers of the first language will be easier to talk about the objects. This is evident if we pay attention to technical terms in trade, employment or profession. For example, doctors will be easier to talk about medical phenomena because they have vocabulary (terms) about it. Second, if a language has a concept of differentiation while others do not, those who use the first language will better understand differentiation in their environment, especially regarding concepts that are the center of attention for linguistic differentiation.

In a mass media (1971), a person named "Kang En" (perhaps a pseudonym) wrote a provocative article, based on the Sapir-Whorf hypothesis. The three issues raised were: greeting words, tenses and greetings. According to him, the language that borrows the word kinship (father, mother, brother) as a greeting, results in the user community being familiar. Languages that do not recognize tenses (when) result in people not appreciating time / lack of discipline. The language that greeting uses how do you do and "how are you", has a different impact on the user community.

According to Vygotsky (1962, as cited in Nunan, 2010), language plays a crucial role in cognitive development, at least from the time the child promotes language competence. Language, first developed as a means of social communication, is later internalized and becomes an essential tool in the shaping of cognitive processes relevant for the elaboration of the abstract symbolic system that will enable the child to organize thought. Vygotsky (1978, as cited in Turuk, 2008) states that the child acquires knowledge through contacts and interactions with people as the first step, then later assimilates and internalizes this knowledge adding his personal value to it.

### **RESEARCH METHODOLOGY**

This study is a qualitative research which is based on the synthetic and analytic analysis. There are some methods of investigation used in this article such as linguistic description, sociolinguistic analysis, classification theory. The research method used is library research. Data collection was complied using documentation method. The data analysis technique used is content analysis. In order to maintain the accuracy of the assessment and prevent misinformation in data analysis the library-relevant literature data is further scrutinized.



## ANALYSIS AND DISCUSSION

This article analyzes several perspectives on the interpretation of language and culture in modern linguistics. When talking about the relationship between language and culture, it is crucial to dwell on the concept of "culture". There exist various attempts to interpret this concept. The interpretation of language and culture in modern linguistics is different. For instance, G.V.Yelizarova includes the concept of "culture" in the list of axiomatic concepts that seem intuitively transparent. However, it is very difficult to define such a complex concept. There are also definitions of culture that seek to cover all aspects of this concept without dwelling on one aspect, such as “Culture is how we live here”. The initial approach to the definition of culture is based on the idea that culture is a homogeneous state inherent in all societies. Differences in society are interpreted not as differences in their essence and content, but as differences in the level of cultural development. Progress from savagery to civilization has served as a measure. It is believed that the more features of a society under its control, the more culturally developed it is. We find in the works of E.Taylor the clearest expression of such an approach to the understanding of culture. At the end of the XIX century, with the beginning of F. Boas' anthropological research, the term "culture" began to be applied to different societies. Such a modification of attitudes toward culture is very important in terms of how important language becomes. From then on, language and culture are considered inextricably linked. A. Vezhbetskaya gives a particularly effective definition of culture proposed by Clifford Gerts. It says that culture is a historically formed model of the essences embodied in symbols. It is a system of inherited perceptions through which people communicate with each other, and their knowledge of life and the rules of life are recorded and developed on the basis of these perceptions. E. Sepir described culture as something that is the basis for the functioning and thinking of this society. The content and structure of culture are interpreted differently depending on the components involved, the objectives of the study, and the schools to which researchers in different fields of science and culture belong. The social approach to the definition of culture is based on the fact that this situation is viewed in a completely different way from the biological and physiological aspects of nature, not limited to the individual, but specific to a group of people with whom he communicates. The cognitive approach to the definition of culture is that culture can be considered in terms of intellectual realities, structures, and processes as it is mastered by the individual. Such an approach to the concept of culture pays special attention to culture as a process of knowledge and cognition and is called cognitive (V.Gudenaf). The semiotic approach is based on the understanding of culture, first of all, as a system of signs that can be used as a means of communication of world perception (K. Levi-Strauss). However, none

of these definitions can be considered complete, as they reveal only one aspect of the multifaceted aspects of culture, which are limited to an “approach” to culture and do not consider it as a whole. M.K.Mamardashvili and A.M.Pyatigorsky note that "culture is a phenomenon that introduces the automation of objectively oriented thinking." All cultural researchers recognize the special role of language in this complex situation structure, regardless of which specific scientific school it belongs to. E. Sepir writes: “There is no doubt that language plays an important role in the accumulation of culture and its historical heritage. This applies equally to the highest levels of culture and its simplest forms. In the simplest society, a large part of the cultural fund is preserved in the form of a more or less precisely defined language. The use of the term "simplest culture" may be questionable. In our opinion, there are different cultures, but there are no "simplest" or "developed" cultures. According to Z.K.Tarlanov, “language is not a simple form and a simple means of communication, it is a completely independent world, and although its laws and rules are inherently expressed through language, the social psychology of language owners and their It is inextricably linked with the type and composition of the culture it creates.

### CONCLUSION

As a result of the study, the following concluding statements can be drawn.

Language serves as a powerful tool for representing culture, reflecting the beliefs, values, customs, and social practices of a particular community or society. In addition, the role of language in representing culture extends to the realm of intercultural communication, where differences in linguistic norms, politeness strategies, and speech acts can either bridge or hinder communication between individuals from diverse cultural backgrounds. Understanding the cultural nuances embedded in language use is crucial for fostering mutual respect, empathy, and effective dialogue in multicultural settings. the role of language in mediating intercultural communication highlights the influence of cultural factors on language use, discourse strategies, and communicative behaviors between individuals from different cultural backgrounds.

As a concluding remark, understanding the relationship between languages and cultures can be a good starting point for any approach to language education.

### REFERENCES

1. Shanahan D. Culture, culture and “culture” in Foreign Language teaching. F.L. Annals, 31.No 3, 451-457 p.
2. Vezhbitskaya A. (1997). *Язык. Культура. Познание. Language. [The culture. Cognition].* - М.: Russian dictionaries.

3. Sepir E. (1934) *Язык. Введение в изучение речи*. [Tongue. Introduction to the study of speech] M. Sotsekgiz.
4. Teliya, V. N. (2008). Linguoculturology—the key to new reality. *Languaaage. Culture. Communication*. The collection of scientific works.
5. Goodenough, W. H. (1981). *Culture, language, and society*. USA: Benjamin-Cummings.
6. Fuller, J. M., & Wardhaugh, R. (2014). *An introduction to sociolinguistics*. Oxford: Wiley Blackwell.
7. Ji, L. J., Zhang, Z., & Nisbett, R. E. (2004). Is it culture or is it language? Examination of language effects in cross-cultural research on categorization. *Journal of personality and social psychology*, 87(1),57.
8. Elmes, D. (2013). The relationship between language and culture. National Institute of Fitness and Sports in Kanoya International Exchange and Language Education Center, available at: [www2.libnifsk.ac.jp/HPBU/annals/an46/46-11](http://www2.libnifsk.ac.jp/HPBU/annals/an46/46-11).
9. Turuk, M. C. (2008). The relevance and implications of Vygotsky’s sociocultural theory in the second language classroom. *Arecls*, 5, 244-262.
10. Wardhaugh, R. (2002). *An introduction to sociolinguistics*. (Fourth Ed.). Oxford: Blackwell Publishers.

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINIO'STIRISHDA KOMUNIKATIV MULOQOT O'RNI

**Parvinabonu Baxtiyor qizi Xayriddinova**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni atrofdagi kishilar bilan o'zaro muloqotga tayyorlash metod va usullari haqida fikr munosabatlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagog, tarbiyalanuvchi, kommunikativ muloqot, suhbat.

### АННОТАЦИЯ

В статье изложено мнение о методах и способах подготовки детей к взаимодействию с окружающими в дошкольной образовательной организации.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дошкольная образовательная организация, педагог, воспитанник, коммуникативное общение, беседа.

### ABSTRACT

the article expresses an opinion on the methods and methods of preparing children for interaction with people around them in the preschool educational organization.

**Keywords:** preschool education, preschool organization, educator, educator, communicative communication, conversation.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan ulug'vor vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, erta yoshlikdan o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab borishdan iborat. TMM ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat"

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa, bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini o'stirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So'z boyligi barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu o'z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg'ularni o'stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.

Ona tili orqali bolalar o'z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og'zakijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqinio`stirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga, albatta, ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqinio`stirishemotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqinio`stirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqniegallaydi hamda:

- ❖ katta yoshli, yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha
- ❖ oladi;
- ❖ dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshie'tiborini o'ziga
- ❖ jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi;
- ❖ fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;
- ❖ tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziq boshlaydi;
- ❖ fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarida tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;
- ❖ nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi;
- ❖ ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi.

Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan o`stirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o'rganishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 231-235.
2. Эргашева Г. Б. Использование интегрированных технологий в высшем образовании //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 74-75.
3. Алимов А. Т., Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Особенности применения метода "изучение случаев" в обучении //Молодой ученый. – 2016. – №. 10. – С. 1163-1165.
4. Очилова М. О, Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.

MUNDARIJA | CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1. Elshod Abdusalim o'g'li Ulug'murodov.(2024). AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURI MUHITIDA ISHLASH Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 4-8.
2. Mahliyo Salohiddinova.(2024). NOGIRONLIGI BO'LGAN INSONLARNI FAOL HAYOTGA INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 9-16.
3. Z.I. Arzibayeva.(2024). JAHONGIR AHMEDOV IJODIDA O'ZBEK KINO JANRINI TUTGAN O'RNI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 17-21.
4. Ф.И. Ибодуллаева, К.А. Дубровская.(2024). ПРИМЕНЕНИЕ КОНСТРУКТОРА СИТУАЦИОННЫХ ЗАДАЧ Л.С. ИЛЮШИНА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 22-27.
5. Чарос Равшанова, К.Ю. Расулова.(2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 28-34.
6. Аида Анварбекова, К.Ю. Расулова.(2024). ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ РУССКОГО ЯЗЫКА В РОССИЙСКИХ И УЗБЕКИСТАНСКИХ ГАЗЕТАХ Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 35-38.
7. С. А. Уктамова, К.А. Дубровская.(2024). ПРИМЕНЕНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 39-44.
8. Dildora Jumanazarova, Gulnoz Ermatova.(2024). МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATION SHAKLLAR ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 45-50.
9. Sayyoraхon To'lanova, Sitoraxon Nurmuhammadova (2024). THE IMPACT OF MASS MEDIA LANGUAGE IN MODERN LINGUISTICS Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 51-54.
10. Dilshoda Muxammadiyeva (2024). NEW INNOVATIONS IN TEACHING OF MATHEMATICS Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 55-59.
11. Kamola Abduvaliyeva (2024). “SHAJARAYI TURK” ASARINING O'RGANILISH TARIXI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 60-67.
12. Sitora Toshmamatova, Zulfizar Qochqorova (2024). MEHRIBONLIK” KONSEPTINING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARDAGI IFODASI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 68-70.
13. Dilshoda Umirova, Sumanbar Atkamova.(2024). LINGUOCULTURAL MODEL OF FOLK RIDDLES IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 71-77.
14. Nozima Shuxratovna Aliyeva.(2024). O'QUVCHI SHAXSIDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH METODLARINING O'RNI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 78-81.
15. Sevara Pardayeva.(2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING UMUMNAZARIY ASOSLARI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 82-87.
16. Худайберган Бахтиёров, Хамиджон Худойкулов.(2024). КРЕДИТОВАНИЕ КОРПОРАТИВНЫХ КЛИЕНТОВ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ СЕКТОРА МАЛОГО БИЗНЕСА Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 88-91.
17. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич.(2024). РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 92-100.
18. Мухиддин Абдуллаевич Курбонов.(2024). ХУФЁИНА ИҚТИСОДИЁТГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ВА ЮРИДИК ТАБИАТИ Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 101-108.



---

**19.**Jasmina Murotova.(2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA IBORALARNING O‘RNI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 109-115.

---

**20.**Sevara Ungalova.(2024). THE RELATION OF LANGUAGE WITH CULTURE AND ITS ROLE IN REPRESENTING CULTURE Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 116-123.

---

**21.**Parvinabonu Xayriddinova.(2024). MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA KOMUNIKATIV MULOQOT O‘RNI Involta Innovation Scientific Journal, 3(6), 124-127.

---